

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

PEDAGOGIKA FAKULTETI

« SAN'AT » KAFEDRASI

*5140900 – Kasbiy ta'lim (5211200–Amaliy san'at)
ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr
darajasini olish uchun*



BITIRUV MALAKAVIY ISH

Mavzu: Tasviriy san'atda portret janri

Ilmiy rahbar:

o'qituvchi A. S. Musinova

Taqrizchi:

Kafedra mudiri:

B.Madrimov

Fakultet dekani:

p.f.d.prof.Sh.R.Barotov

Buxoro- 2014 y.

Mavzu: “ Tasviriy san’atda portret janri”

Reja:

Kirish.

I BOB.

1.1. Portret - rangtasvirning bir janri sifatida

1.2. Kamoliddin Behzod ijodida portret.

1.3. Malik Nabiev ijodi

II BOB.

2.1. Ijodiy portret yaratish qoida hamda usullari.

2.2. Odam boshini chizish

2.3. Inson qiyofasini akademik qalamtasvir usulda tasvirlashda metodik izchillikka rioya qilish.

Xulosa

Ilovalar

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

KIRISH

*Bizga o'tmishdan obidalar, osori atiqalar bilan birga
ajdodlarimizning aql-zakovati zehni va farosati, fikrlash salohiyati,
boy ma'naviy olami ham meros bo'lib qolgan.*

I.A.Karimov

Jahon taraqqiyotida muhim o'ringa ega bo'lgan milliy ma'naviyatimiz asosida ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot barpo etish bosh maqsad etib belgilandi. Ushbu maqsadga erishishda asosiy e'tibor yosh avlodni barkamol, ma'naviy va jismonan sog'lom, yuqori malakali kasb egasi qilib tarbiyalashga qaratilgan. Prezidentimiz I.A.Karimov "2010 yilning asosiy yakunlari va 2011 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruza"larida, "biz farzandlarimizning nafaqat jismoniy va ma'naviy sog'lom o'sishi, balki ularning eng zamonaviy intellektual bilimlariga ega bo'lgan, uyg'un rivojlangan insonlar bo'lib, XXI asr talablariga to'liq javob beradigan barkamol avlod bo'lib voyaga etish uchun zarur barcha imkoniyat va sharoitlarni yaratishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'yganmiz" degan fikrlari fikrimiz dalilidir.

Yosh avlodni har tomonlama ma'naviy kamol topishi va farovonligi shaxs manfaatlarini ro'yobga chiqarishning shart-sharoitlarini va ta'sirchan mexanizmlarini yaratish, eskirgan tafakkur va xulq-atvorini o'zgartirish, Respublikada amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruvchi kuchidir.

Xalqimizni boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida zamonaviy madaniyat, san'at, iqtisodiyot, fan, texnika, texnologiyalarining yutuqlari asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tuzilishini shakllantirish O'zbekiston taraqqiyotining muhim shartidir.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, O'zbekistonning ijtimoiy va iqtisodiy sohadagi tanlangan rivojlanish yo'li ta'lim sohasini ham tubdan yangilash bo'yicha isloxoatlar o'tkazishni taqozo etdi. Bu isloxoatlar o'z oldiga ma'lum bir vazifalarni maqsad qilib qo'ydi. Bulardan jamiyatimizning muhim vazifalaridan biri – o'zida ma'naviy boylikni, axloqiy poklik va jismoniy barkamollikni mujassamlashtirgan, san'at turlarini puxta biladigan insonni etishtirishdir. Ana shu tarixiy vazifani hal qilishning asosiy omili murakkab va ko'p qirrali tarbiya tizimidan iboratdir. Mazkur tizimda yosh avlodni san'at vositasida tarbiyalash muhim rol o'ynaydi.

San'at vositasida tarbiyalash samaradorligini oshirishga doir zarur ko'rsatmalar, dolzarb tadbirlar juda ko'p hujjatlarda o'z ifodasini topgan. Respublikamizda san'at vositasida tarbiyalashni takomillashtirish va shunga muvofiq kerakli shart-sharoitlarni yaratishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda.

San'atning eng qadimiy va keng tarqalgan turlaridan biri – tasviriy san'atdir. San'atkor o'z asarlarida voqea va hodisalar, turli holatlarning ma'lum bir ko'rinishini ifodalab, tasvir orqali ichki mohiyatni ochib, kishilarning ma'naviy qiyofasi, psixologik (ruhiy) holati va fikrlarini tasvirlaydi. Rassom biror shaxs rasmini ishlar ekan, u hech vaqt uni faqat o'ziga o'xshatish bilan chegaralanmaydi, balki tasvir orqali, avvalo, o'zining fikr va tuyg'ularini tomoshabinga etkazishga harakat qiladi. U dastlab g'oyaga mos mavzu tanlaydi, voqea kompozitsiyasini quradi, shu yo'lda izlanadi, naturani kuzatib, eskizlar chizadi hamda etyudlar yaratadi.

Tasviriy san'at inson ongiga tezda ta'sir etib, unda ezgu hislar uyg'otadigan, ma'naviy olamini boyitadigan san'at turlaridan biridir. Shu bilan birga, tasviriy san'at inson shaxsining shakllanishi va kamolga etishiga yordam beradigan tarbiyachi hamdir.

Inson qadim – qadimdan san'at vositalari yordamida o'z hayotini go'zallashtirishga intilgan. Avlodlarimiz qoldirib ketgan me'moriy – madaniy yodgorliklar, tasvirlarni diqqat bilan kuzatib inson qo'li nimalarga qodir ekanligini bilib olamiz.

Tasviriy san'atda inson bilan bog'liq mavzu asosiy o'rinni egallaydi. Tabiatning eng murakkab va shu bilan bir qatorda eng go'zal mahsuli bo'lgan inson gavdasi

ayniqsa, uning portretini tasvirlashga rasomlar qadim-qadimdan qiziqib kelganlar. Mamlakatimiz hududidan topilgan eramizdan avvalgi taxminan ikki minginchi yillarga mansub harbiy kishi, ayollarning haykal portetlari fikrimizning yorqin dalili bo'la oladi. Inson portretini tasvirlash eng murakkab jarayon bo'lishiga qaramasdan qadimgi odamlar uning go'zalligini namoyon etishga harakat qilganlar. Ularda portret xarakterini tasvirlash uchun malaka etarli bo'lmasada, peshona, ko'z, lab, burun shakllarini o'xshatib ishlashga harakat qilganlar.

Hozirgacha barcha badiiy oliygohlarda bo'lgani kabi, pedagogika instituti va universitetlarida rassom o'qituvchilarini tayyorlashda inson portretini tasvirlashga alohida o'rin berilgan.

Zamonaviy pedagog – rassom portret ishlash bo'yicha professional malakalarga ega bo'lishi bilan bir qatorda, inson psixologiyasini o'qiy oladigan, hamda uning yuz tuzilishini tasvirlash orqali ichki dunyosini ko'rsata olishi zarur. Buning uchun esa u ko'plab mashqlar bajarishi, bosh chanog'i tuzilishi va plastik anatomiyasini o'rgangan bo'lishi zarur.

I BOB.

1.1. Portret - rangtasvirning bir janri sifatida

Inson boshining murakkab shakllarini to'g'ri tasvirlay olish narsaning o'ziga qarab xaqqoniy rasm chizish mashqlariga asoslangan. Bu esa antik davrga mansub gipsdan yasalgan Dovud bosh bo'laklarini (ko'z, burun, lab, quloq) o'ziga qarab tasvirlash orqali boshning gipsdan yasalgan kesik shakli namunasini chizish, undan keyin esa, Antik davr gips bosh namunalari; Apollon, Venera, Diadumen, Gomer kabi bosh haykallarini o'ziga qarab tasvirlash mashqlari vositasida amalga oshiriladi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, tasviriy san'atning portret janri o'zining ko'p asrlik tarixiga egadir. Bu janr haqida biz o'quv darsliklaridan, turli xildagi adabiyotlardan, rassomlar ijodidan chuqurroq ma'lumotga ega bo'lishimiz mumkin. Hozirgi malakaviy bitiruv ishim ijodiy portret mavzusiga bag'ishlangan bo'lib, unda o'z oldimga quyidagilarni maqsad qilib qo'ydim:

- ~ Portret janri haqida chuqurroq ma'lumotlarga ega bo'lish;
- ~ G'arb va Sharq musavvirlari ijodida portret janrining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish;
- ~ O'zbekiston rassomlari ijodida portret janriga mansub asarlarni tahlil qilish;
- ~ Ijodiy portret yaratish.

Bitiruv malakaviy ish kirish, asosiy qism: 5 ta paragraf, xulosa, ilovalar va adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Portret – rangtasvirning bir turi hisoblanadi. Insonning ichki ruhiy olami bilan bog'langan holda aniq bir obraz yaratilishiga portret san'ati deb yuritiladi. Portret yaratish o'ziga xos murakkab jarayon bo'lib, insonning anatomik tuzilishidan tortib ichki ruhiy, ma'naviy holati, shuningdek, tashqi ko'rinishidagi barcha jihatlarini aks ettirishi bilan san'at darajasidagi asar bo'lishi mumkin. Portretchi rassom odamlarga xos turli harakatlarni his qila bilishi, ayniqsa, odamning qiyofasidagi samimiylilik yoki

soxta jihatlarni tasvirlay olish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Inson obrazini yaratish tasviriy san'atda eng murakkab jarayon hisoblanadi.

Musavvir o'z mahorati bilan bo'yoqlar majmuasida o'zi yaratayotgan obrazning tashqi qiyofasi orqali uning ichki kechinmalarini, ruhiy olamini ochib berishga intiladi. Ayni paytda portret ham murakkab janr bo'lib, u ham bir necha turlarga bo'linadi:

1. Psixologik (ruhiy) portret. Bu mavzuda musavvir oldida tasvirlanuvchining faqat tashqi qiyofasini emas, balki ichki dunyosini va ruhiy kechinmalarini ko'rsata olish kabi muammo turadi. Masalan, Abdulhaq Abdullaevning "Komil Yashin" portreti.

2. Bayram portreti. Bu erda esa tasvirlanuvchini hashamdor, umuman bayram libosida ko'ramiz. Uning ko'krak nishonlari ham bo'lishi mumkin. Masalan, A. Shilovning "Yu.Gagarin" portreti.

3. Guruhli portret. Mavzu nomidan anglashilib turibdii, bu erda, ya'ni tasvirda bir necha kishining portreti tasvirlanadi. Masalan, Rembrandtning "Doktor Tulpning anatomiya darsi".

4. Intim portret. Bu portret mavzusida oila, intim yoki ishq muhabbat bilan bog'liq bo'lgan holatlar tasvirlanadi. Masalan, Rembrandtning "Danaya" asari bunga yaqqol misol bo'la oladi.

5. Tarixiy mavzudagi portret. Bunday mavzuda chizilgan portretda ham musavvir aniq tarixiy voqealarga murojaat qilib, o'z oldiga qo'yilgan muammoni echishga harakat qiladi. Masalan, M.Nabievning "Amir Temur" portreti.

Portretning badiiy qimmati bu – tasvirlangan shaxsning asli, ya'ni modeliga o'xshashligi bilan baholanadi. Portretda nafaqat tashqi ko'rinishning o'xshashligi, balki tasvirlangan shaxs va shaxslarning ruhiyati, individualligi, muayyan davr, ijtimoiy muhit, millatning aloxida xususiyatlari ham yaxlitligicha aks etadi. Shuningdek, rassomning o'z qahramoniga munosabati, uning o'zining dunyoqarashi, ijodiy va portretni talqin qilish uslubi portret obraziga sub'ektiv tuslanish beradi.

Texnik ijro, maqsad, obraz tasvirining o'ziga xosligiga ko'ra, portret dastgohli (kartinalar, byustlar, grafik asarlar) va mahobatli, tantanali va intim, ko'krakdan va butun bo'y basti, yon tomondan, anfas va boshqa ko'rinishda bo'ladi. Portret

medallarda, gemma, miniatyura uslubida ham bajariladi. Obrazlar soniga ko'ra, portret yakka, ikkilik va guruhli turlarga bo'linadi. Portretning o'zxiga xos janri bu avtoportret hisoblanadi.

Janrlar chegarasining nisbiyligi portretning boshqa janrlar elementi bilan kirishuviga imkoniyat yaratadi. Portret kartinada portretga olinuvchi, uni qurshab olgan narsalar, manazara, me'morchilik va boshqa kishilar bilan o'zaro bog'liqlikda beriladi va ifoda etiladi. Tipik portret esa yig'ma obraz bo'lib, tuzilishi jihatidan portretga yaqindir. Portretda nafaqat yuksak ruhiy, axloqiy sifatlar, balki salbiy insoniy xususiyatlar aksi, hajviy hazil mutoyiba portretlarining vujudga kelishini ta'minlaydi. Umuman portret san'ati jamiyat hayotining muhim voqealarini, unga qarama qarshiliklarni o'zaro uyg'un, qorishgan holatda ifoda etishga qodir.

Tasviriy san'atning portret janri insonning ma'naviy qiyofasini o'zida ifodalashi bilan san'atning boshqa turlaridan birmuncha farq qiladi. Portret orqali inson obrazini mohirona ko'rsata olgan buyuk rassomlar qatoriga Kamoliddin Behzod, Leonardo da Vinchi, Rembrandt, shuningdek, o'zbek rassomlaridan Abdulhaq Abdullaev, Rahim Ahmedov, Chingiz Ahmarov, Malik Nabiev kabi bir qancha rassomlarni kiritish mumkin.

Odam boshining tasviri ustida ishlashning butun majmui tasviriy san'atning ustivor tamoyili umumiylikdan xususiylikka va xususiylikdan yana umumiylikka o'tishga asoslanadi. Boshqacha aytganda, naturaning qismlarini tahlil qilish orqali umumiy shakl obrazini ifoda etish qoidasiga rioya etish kerak. Bu tamoyil rasm chizish bo'yicha chop etilgan barcha o'quv dasturlarida o'z aksini topgan bo'lib, maxsus badiiy maktab, kasb hunar kollejlari va oliy o'quv yurtlarida ham etakchi hisoblanadi. U barcha o'quvchilarga (ularning davomli rasm chizish tayyorgarligi darajasidan qat'iy nazar) taklif etiladi va bajarilishi talab qilinadi. O'quvchilar uni oson egallab olishlari va mazmuni bilan yaxshiroq tanishib chiqishlari uchun tasvir ustida ishlashning murakkab majmui alohida alohida bosqichlarga bo'linadi. Bundan tashqari uslubiy izchillikka rioya qilgan holda tasvirlash o'quvchi uchun har bir bosqichni aloxida tushunib etishga va ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni anglashga imkon yaratadi.

Ko'pchili portretlar qog'oz yuzasining o'rtasida jamlanadi. Uyg'onish davri rassomlari ijodiy merosida bir qator portretlar mavjudki, ularda boshning yuz qismi rasm chetiga nihoyatda yaqinlashtirilgan.

Ko'pchilik o'quvchilar rasm chizishda chiziqlardan qanday foydalanish kerak, bosh shaklini birdaniga aniq chiziq bilan ifodalash kerakmi yoki faqatgina engilgina chizish lozimmi, deb so'raydilar. P.Chistyakov shunday yozgan edi: "Bu o'rinda har xil usullar bo'ladi: bir kishi qo'lida qalam bilan uzoq vaqt qarab turadi, so'ng shaklni tasvirlaydi, boshqasi esa qalamni qog'oz ustida tez tez yurgiza boshlaydi va shu bilan birga bir yo'la belgilar chizadi, ya'ni ham joyi, ham harakati ustida ishlaydi. Xo'sh qaysi biri durustq Har ikkisi ham ijobiy. Eng asosiysi, bosib chizmaslik. Chunki qora chiziqlar xatolarni ko'ra bilishni qiyinlashtiradi. Bu xatolarni tuzatish esa undanda qiyin".

Portretning to'g'ri topilgan echimi uning plastik xarakteristikasi, ruhiy holati, psixologiyasini, shuningdek, uning millatini ham aniq ochib beradi. Tomoshabinning asosiy diqqati portretning bosh, yuz qismiga ko'proq qaratilgan bo'ladi. Portretda eng muhimi uning ko'rinishi va yuz ifodasidir. Aynan shu ifodada insonning ichki ruhiy dunyosi aks etadi. Inson xarakterini, umuman butun borlig'ini yorqin namoyon etadigan ifodani topish juda muhimdir. Boshqa detallar esa uni to'ldiradi va kuchaytiradi. Inson tasvirida ko'z, burun va lablar uning xarakterini ifodalaydi.

Portretda qo'llar ham katta ahamiyatga ega. qo'lga qarab odamning kasbi, xarakteri, xatto bajaradigan ishini ham aniqlash mumkin

Bosh xarakteri uning burilib, egilib turishi, yuz mimikasi, gavdaning umumiy holati inson xarakterini ochishga yordam beradi. Insonning ichki ruhiy holatini ifodalash rassomning muhim, asosiy vazifasidir. Xarakterli ishoralar ham rassom nazaridan qolmasligi zarur. Ular yuz ifodasiga mos bo'lishi kerak.

Inson dunyoqarashi uning ruhiyati, har bir harakati, o'zini tutishi, voqealarga bo'lgan munosabati, fikrlashi ham obrazni to'laqonli yoritishga yordam beradi. Harakat insonning eng zo'r o'ziga xos xarakteridir. Bu narsani faqat mavzuli asar ishlaganda emas, portret ustida ish yuritish jarayonida ham unutish kerak emas.

Portret san'atida kiyim tanlanishi ham muhim o'rin tutadi. Kiyim insonning kasbi, kelib chiqishi, ichi ruhiy holatini ochib berishga ko'maklashuvchi vosita hamdir. Portretida fon ham katta ahamiyat kasb etadi. Muvaffaqiyatli chiqqan fon tasvirlanayotgan portret bilan uzviy bog'liq bo'ladi. Portret ishlaganda naturadagi kattalikdan kattaroq ishlash maslahat berilmaydi. Har qanday asar ma'lum bir masofada ko'riladi. Portret san'atida o'xshashlikni topish o'ta muhim. O'xshashliksiz portret, portret hisoblanmaydi.

Inson tashqi qiyofasini ichki qiyofasi bilan mos keltirish portretga xos xususiyatdir. Portret san'atida rassomning ushbu odam to'g'risidagi fikri, tasavvuri yaratiladi. Agar rassom portret yozishda etuk texnik usulni o'zlashtirgan bo'lsa, dadil harakatlar bilan rang va tus munosabatlarini moxirona uyg'unlashtira olsa bu uning ulkan yutug'idir.

Ko'pgina taniqli portretnavis rassomlar ishini tahlil qilib, shuni eslamok kerakki, ular hamma vaqt o'zlarini zeriktiradigan portret qiyofalaridan chetlab o'tishgan. Hatto dastlabki o'quv mashg'ulotlarida ham bunday salbiy holatlarga yo'l qo'ymaslik kerak. Bu holat quruq, foydasiz bo'lib, xuddi fotoapparat orqali suratga olgandek bo'ladi. Modomiki, birinchi darsning o'zidayoq o'rganuvchini ijodiy izlanishga yo'naltirish va elementar bilimni bermok kerak, vaholanki kelgusida bu bilim portret muammosini hal qilsin.

Ko'pgina taniqli portretnavis rassomlar ishini tahlil qilib, shuni eslamok kerakki, ular hamma vaqt o'zlarini zeriktiradigan portret qiyofalaridan chetlab o'tishgan. Hatto dastlabki o'quv mashg'ulotlarida ham bunday salbiy holatlarga yo'l qo'ymaslik kerak. Bu holat quruq, foydasiz bo'lib, xuddi fotoapparat orqali suratga olgandek bo'ladi. Modomiki, birinchi darsning o'zidayoq o'rganuvchini ijodiy izlanishga yo'naltirish va elementar bilimni bermok kerak, vaholanki kelgusida bu bilim portret muammosini hal qilsin. Gohida shunday hodisa ham uchrashi mumkin, chizishni yaxshi egallagan talaba institutni tugatgach, ishga ijodiy yondashmay, balki o'rganganlarini takrorlashi mumkin. Bu erda talaba ishni hech qanday yangiliksiz echadi.

Nisbatlarni aniqlash, perspektiva qonunlari o'rtasida uch o'lchamli hajmni etkazish, soya va yorug'lik qonunlariga amal qilib narsadagi soya yorug'lik

munosabatini hal qilish kabilar o'quv jarayonida o'rganib qolinmay, balki kishi boshini chizish bilan birga asta sekin yangi ijodiy izlanishlarga o'tib boriladi.

Narsalarni o'ziga qarab tasvirlash borasida, bosh qismini tasvirlash realistik rasm chizish texnikasini mukammal o'zlashtirishni talab qiladi va kelgusida badiiy obrazlar yaratishda mustahkam zamin bo'lib xizmat qiladi.

Realistik san'at kishilarning real hayotga bo'lgan intilishlaridan tashkil topgan, shuning uchun har bir rassom oldida portret ishlashda narsaning haqiqiyligiga erishish kabi aniq vazifa turadi. Realistik portret yaratilar ekan, tasvirda chiziladigan kishiga ortiqcha bezaklar yarashmaydi. Ayrim paytlarda fotograflar retush bilan kishilarning yuzlaridagi yosh o'tishi bilan paydo bo'ladigan dog'lar va izlarni yo'qotib, qiyofani chiroyli qilmoqchi bo'ladilar. Bu esa tirik, nafas oladigan kishini sovuq, qotib qolgan soxta qiyofaga aylantiradi.

Ba'zi bir rassomlar muvaffaqiyatli chiqmagan portretlarda faqat tashqi qiyofani tasvirlash bilan qanoatlanib, tashqi sharoit muhitni hisobga olishmaydi, hatto kishi qiyofasidagi ayrim xarakterli alomatlarni ham o'z me'yoriga etkazishmaydi. Tasvirlanuvchi qiyofasida turli xil alomatlar bo'lib, ularning ko'pchiligi tasodifiy paydo bo'lgan emas va ular yuzdagi tipik xususiyatlarni tashkil etadi. Portretnavis rassom uchun bunday belgi va alomatlardan to'liq foydalanish juda ham zarur chunki kishi qiyofasidagi alomatlar o'z navbatida tasvirlanuvchining xarakteriga xos holatlarni yuzaga chiqarishga ko'maklashadi.

Rassom portretda albatta tashqi qiyofani to'liq etkazilishiga harakat qiladi, lekin bu bilan chegaralanibgina qolmay, balki ish jarayoni davomida tasvirlanuvchi xarakteriga bog'liq bo'lgan alomatlarni yuzaga chiqarishga intiladi. Bu alomatlar kishining chuqur ezgu niyat va o'tmish voqealari bilan bog'liq bo'ladi.

Realistik san'at rassomda oddiy ko'ringan narsalarni sanab o'tishga, ularni maqsadga muvofiq saralashga va haqiqiy tarzda tasvirlashga majbur qiladi. Joylashtirish kompozistiyasi, yuqorida aytilganidek, badiiy obrazli tasvirlarning asosiy qoidalaridan biri bo'lib xizmat qiladi. Bundan tashqari ko'rish nuqtasini to'g'ri tanlash va yorug'likning to'g'ri tushushini ta'minlash portret chizishda katta ahamiyat

kasb etadi. Mabodo mana shunday qator shartlarga bo'ysunilmasa, hatto kuzatiluqchi o'ziga o'xshasada, rasmda muvaffaqiyatli tomonlar kamroq bo'lishi mumkin.

Yana bir narsani kuzatish juda muhimdir, tasvirlanayotgan qiyofa tasodifan emas, balki naturaga nisbatan tipik holatga keltirilsin. Ko'pgina portretnavis rassomlar tasvirlanadigan kishi bilan tanishmog'i, u bilan suhbatda bo'lmoq, har doim suhbat davomida uning "mimika" o'zgarishlarini kuzatishi kerak deyiladi.

Tasvirdagi uyg'un joylar rassomning uzoq vaqt chizgandan so'ng ham yuzaga kelmasligi mumkin, chunki ko'pgina rassomlar bunday xarakterli joylarni tanaffusdan keyin chizishni ma'qul ko'radilar, aniqrog'i tasvirlanuvchi qiyofasi tanaffusdan keyin yanada kuchliroq taassurot qoldiradi.

Portret bajarish vazifasi ko'pgina mayda chuyda detallarni chetlab o'tishni talab etadi va ularni umumlashtirishni ma'qul ko'radi. Bir kishi qiyofasini har xil rassomlar har xil xarakterlamog'i mumkin. Portretdagi xarakter va mazmun rassomning chuqur fikrlashidan va qarashlari bilan bog'liq bo'ladi.

Portret san'ati o'z xususiyatiga ega. Portretchi ijodi oldida har xil konkret muammolar, real ijodiy tasvirlash uchun to'planadi. Ayni paytda badiiy ijodning oddiy elementlarini ham ko'zdan qochirmasligi kerak. Portretda berilgan "individual" (xususiy) narsalar tasvirlanuvchidagi haqiqiylikni etkazishga qarshilik ko'rsatmaydi.

Portretni bo'yoq bilan yozish albatta rasm bilan bog'liq, agar bu erda vazifa tuslar ustida borsa, unda o'quv topshirig'ini engillashtirmoq kerak bo'ladi. Rangtasvirda ham uch o'lchamli shaklni tasvirlamoq shart. Bu erda ranglar xarakteristikasini, portretning umumiy ranglar uyg'unligining rangbarang reflekslarga boy obrazda, yorug'lik nurlarini va tushuvchi soyalarni hisobga olmoq ko'zda tutiladi. Bularning ko'pchiligi va ko'pgina rangli vazifalar rangtasvir kursining mazmunini tashkil etadi.

Mashhur portret ustalarining portretlarida konstruktiv qurilish, shakl yasalishi va tuslar echimining namunalarini ko'ramiz.

1.2. Kamoliddin Behzod ijodida portret.

O'zining takrorlanmas ijodi, go'zal san'ati vaajoyib mahorati bilan nafaqat Sharq xalqlari, balki butun dunyo xalqlari madaniyati tarixida sezilarli iz qoldirgan, uning taraqqiyoti uchun barakali hissa qo'shgan zabardas musavvir Kamoliddin Behzod Hirotida 1455 yilda hunarmand-kosib oilasida dunyoga keldi. Tarixiy manbalarda yozilishicha, uning nomi Behzod bo'lib, Hirot aholisi uni suyub, erkalab Kamoliddin, deb chaqirishgan ekan. Alisher Navoiy uni o'z maktublaridan birida «ustod Behzod» deb ataydi.

Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati tarixida temuriylar davri aloxida ajralib turadi. Markaziy Osiyoda yashab ijod etgan buyuk zotlardan tarixchi Xondamir, Sharafiddin Ali Yazdiy, Ibn Arabshox, Davlatshox Samarqandiy, olimlar – Ulug'bek, Ali qushchi, shoirlar – Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, musavvirlar – qosim Ali, Mirak Naqqosh, Mahmud Muzahhib, hattotlar – Sulton Ali Mashhadiy va juda ko'p atoqli zotlarni sanab o'tishimiz mumkin. Shu davrda yashab ijod etgan to hozirgi davrgacha nomi faqat Markaziy Osiyo, balki, jahon miqyosida tan olingan ijodkorlardan biri Kamoliddin Behzod bo'lib hisoblanadi. Sharq xalqlarining rangtasvir san'ati hisoblanmish san'atining rivojlanishi bevosita Behzod nomi bilan chambarchas bog'liqdir.

Behzod nomi tiriklik chog'idayoq (1455 - 1535) Xurosondan tashqari ham keng tanilgan edi. Uning ko'plab shogirdlari va davomchilari bo'lib, uning asarlaridan o'rgandilar, xush ko'rib bunga taqlid ham qildilar. Behzod ijodi Hirot, Tabriz, Buxoro va Samarqand, Hindiston (Dehli va Agra) rangtasvir maktablari va boshqa miniatyura maktablarining keyingi rivojiga katta ta'sir ko'rsatdi.

O'z davri va undan keyingi avlod musavvirlari yo'lini porloq yulduz misol yoritgan Movarounnahr va Xurosonda yashagan, Sharq uyg'onish davri vakili Kamoliddin Behzod 1455 yilda Hirotida kambag'al hunarmand oilasida dunyoga kelgan. Ota-anosidan yoshligidan judo bo'lgan. Behzod iste'dodini payqagan Sulton Husayn Boyqaro kutubxonasining kitobdori, musavvir Amir Ruhillo (Mirak Naqqosh) unga tutingan ota bo'ladi va uni voyaga etkazadi. Bo'lajak musavvir Mirak Naqqosh qo'lida, uning Hirotidagi Nigoristonida miniatyura va naqqoshlik sirlarini o'rganadi.

Tarixchi va san'atshunoslar fikriga ko'ra Behzod 1470 yildan o'z ijodiy faoliyatini boshlagan.

Behzod turli ustozlardan tarbiya olgan. Manbalarda Behzod Pir Sayid Ahmad Tabriziy shogirdi, deb ham ko'rsatilgan. Pir Sayid Ahmad Tabriziy esa buxorolik ustod Jahongirning shogirdi, buxorolik Jahongir esa o'z navbatida ustod Gung shogirdi bo'lganligi qayd etilgan. Behzodning asarlaridagi o'ziga xos xususiyatlarda ustozlarning ta'siri kattadir.

U yoshligida mashhur san'atkor Sulton Ali Mashhadiy bilan juda yaqin munosabatda bo'lganini xattotning bizgacha etib kelgan quyidagi badihasidan ham bilsa bo'ladi:

Aziz, arjumand farzand Behzod,

Goh-gohida biz tomonga kelib turardi.

U o'z suratlari tufayli men uchun umrdek aziz,

Umrdek vaqt o'tsa ham, hanuz yodga olmaydi.

XV asrdagi Hirot adabiy, badiiy-ilmiy, san'at va madaniyat olamida paydo bo'lgan juda ko'p shaxslar singari Behzodning ham ijodiy kamolotida Alisher Navoiy hal qiluvchi rol o'ynagan.

Navoiyning shaxsiy kutubxonasida o'sha davrning etuk san'atkorlari Mirak Naqqosh, Hoji Muhammad kabi musavvirlar, Hofiz Muhammad, Zayniddin Mahmud, Sulton Muhammad Nur kabi xattotlar ijod bilan band bo'lganlar. Behzod shu kutubxonada, ayniqsa, xattot Sulton Ali Mashhadiy va Yoriy Muzahhib bilan yaqin ijodiy hamkorlikda bo'lgan. Behzod ijodining mavzu doirasi, qahramonlari shu erda Navoiy va boshqa san'atkorlar ijodi ta'sirida kamol topgan.

Behzod musavvirlik sir-asrorlarini Buxorolik musavvir "Umdat al musavvir" deb olgan ustod Jahongir va O'rta Osiyo musavvirlik maktabining asoschisi ustod Gungning ishlarini davom ettirgan naqqosh Pir Ahmad Tabriziydan o'rgangan. Behzodning buyuk musavvir bo'lib tanilishida Sulton Husayn Boyqaro va buyuk Alisher Navoiy hissasi kattadir.

Behzod musavvir sifatida tanilgach, Sulton Husayn saroyida xizmatga chaqirilgan. 1487 yil Sulton Husayn farmoni bilan Behzod saltanat kutubxonasiga

rahbar etib tayinlangan. Kutubxonadagi muzahhib, xalkor, zarko'b, lavvoh, sahhof, jadvalkash, naqqosh va qog'ozrezu davotchilar bevosita Behzod rahbarligida ishlaganlar. Keyinchalik bu joy o'z davrining badiiy akademiyasiga aylanadi. Uni mutaxassislar «Nigor xonayi Behzod» yoki «Behzod akademiyasi» deb ataganlar.

1507 – 1510 yillarda Behzod Hirotni egallagan Muhammad Shayboniyxon xizmatida bo'lgan. Temuriylarning yuksak madaniyatiga hurmat va e'tibor bilan qaragan Shayboniyxon Behzod san'ati oldida lol qolib, uning ijodiy ishlariga deyarli to'sqinlik qilmaydi, aksincha, mumkin qadar sharoit yaratib bergan.

Erondagi Safaviylar saltanati bu davrda ancha kuchayib, ichki va siyosiy kurashlar tufayli inqirozga yuz tutgan Xurosondagi Shayboniylar saltanatiga tahdid solib, 1510 yilda ikki sulola qo'shini o'rtasida Marv yonidagi Tohirobod degan joydagi shiddatli jangda Muhammad Shayboniyxon halok bo'ladi, uning qo'shini tormor etiladi va Hirot Safaviylar qaramog'iga o'tadi. Shoh Ismoil Safaviylar qaramog'iga o'tadi.

Shoh Ismoil Safaviy 1512 yil Hirotidagi bir necha iste'dodli san'atkorlarni, hunarmandlarni o'zi bilan birga Tabrizga olib ketadi. Hirotidan Tabrizga olib ketilgan «javohir»lar orasidagi eng nodiri va noyobi Kamoliddin Behzod edi. Chunki Behzod bu paytda butun Sharq ellarida dong'i ketgan buyuk san'atkor bo'lib, uni o'z qaramog'ida saqlagan saltanat eng boy, qudratli va obro'-e'tiborli hisoblanardi.

Kamoliddin Behzod san'atini yuksak qadrlagan Ismoil Safaviy naqqoshga ijod qilish uchun Tabrizda barcha sharoitlarni yaratib beradi. Ma'lumki, Tabrizga Behzod bir guruh iste'dodli shogirdlari bilan kelgan bo'lib, ular ham Tabrizda Behzodning rahnamoligida o'zlarining ijodiy ishlarini davom ettiradilar.

Manbalarda berilgan ma'lumotlarga ko'ra, 1520 yilda Shoh Ismoil yosh shahzoda Tahmosibga rasm o'rgatish uchun Behzodni o'z saltanati poytaxti Tabriz shahriga taklif etadi. 1522 yil esa maxsus farmon bilan rassomni o'z kutubxonasidagi kitoba ahli (kotib, naqqosh, muzahhib, javdalkash, halkor, zarko'b, dojuvardsho'y va boshqalar)ga mutasaddi etib tayinlaydi.

Behzod Tabrizda istiqomat qila turib san'atkor sifatida hayotida yana bir bor jasorat ko'rsatdi. G'urbatda, g'oyat ruhiy azoblarda, ona shahridan olisda turib yana

bir nafis tasviriy san'at maktabini bunyod etadi. Hirot dagidek bu erda ham o'z atrofiga iste'dodli rassom, naqqosh va boshqa hunarmandlarni to'pladi, ularga qunt bilan rahnamolik qilib, o'zining sehrigar san'atining sir-asrorlarini o'rgata boshladi. Tabrizda Sulton Muhammad, Oqo Mirak, Mir Mansur Musavvir, Mir Said Ali singari o'nlab iste'dodli musavvirlarni tarbiyaladi.

1524 yilda Tabriz sultoni Shoh Ismoil Safaviy vafot etadi va taxt yosh shahzoda Tahmosib qo'liga o'tadi. Manbalarda berilgan ma'lumotlarga ko'ra, Behzod Safaviylar saroyiga juda yaqin, podsho saltanatidagi eng ishonchli san'atkor bo'lgani uchun ham shahzoda Tahmosibga bolalik paytidanoq miniatyurasozlik ilmidan dars berib, uni ham o'zining sehrigar san'atining sir-asroridan xabardor qilib borgan.

1537 yilda keksayib qolgan Behzod Hirot da suyuqli jiyani va shogirdi Rustam Alining o'lim to'shagida yotganligidan xabardor bo'lib, uni ko'rmoq uchun ona shahri Hirot ga o'tlanadi. Lekin u Rustam Ali diydoriga etisha olmaydi. Behzod Hirot ga etib kelguncha u olamdan o'tgan bo'ladi. Bunday judolikdan qattiq qayg'urgan, keksa mo'ysafid Behzodning o'zi ham og'ir xastalanib, 1537 yilda Hirot da olamdan o'tadi. Musavvirning qabri Ko'hi Muxtor (Muxtor tog'i; Afg'oniston hududida)ning xushmanzara joyida.

Behzodning mavqei miniatyura san'atining portret janri shakllanishida beqiyosdir. Uning portretlaridagi odamlar individual o'xshashlikka ega. Usta rassom va nozik did sohibi Behzod faoliyatini 15 asrning oxiri 16 asr boshlarida yashagan Hirot solnomachisi Zayniddin Vosifiy yodnomalaridan ham bilib olishimiz mumkin. U shunday deb yozgandi: "Doimo shoh Sulton Husayn g'am tashvishdan va notinchlikdan ranjigan vaqtda, Behzod portretlarni yoki biror bir Behzod chizgan suratlarni tomosha qilar edi."

Husayn Boyqaro portreti bizgacha etib kelgan. Tasvir Parijda shaxsiy kollektstiyada saqlanib kelinmoqda. Tasvirda Sulton Husayn Mirzo shohona kiyimda tasvirlanib, uning barcha xislatlarini ifodalashga harakat qilingan. Vajohatidan kuchli iroda, jismoniy quvvatga ega ekanligi sezilib turadi. To'ladan kelgan gavdasi, horg'in yuzi, qisiqroq ko'zi, uzukli nozik qo'llari tasvirdagi hukmdor umrining ko'p qismi faqat maishat bilan o'tganligiga dalildir.

Behzod Sulton Husayn Mirzoning ichki dunyosini va tashqi ko'rinishini real tarzda tasvirlay olgan. Bu portret Sulton Husaynning xulq-atvori, shakl va shamoyili to'g'risidagi Bobur fikrlariga ham juda mos keladi: "(Sulton Husayn) qiyiq ko'zluk, sher andom, buyluq kishi edi. Belidan quyi ingichka edi. Bovujudkim, ulug' yosh yashab, oq soqolli bo'lib edi, xush rang, qizil yashil abrishimni kiyar edi. qora ko'zi burk kiyar edi, yo qalpoq..."¹.

15 asr oxirlariga kelib Hirotida temuriylar saltanati emirilishi boshlanadi. 1501 yilda Alisher Navoiy, 1506 yilda Sulton Husayn Boyqaro vafot etadi. 1507 yilda Hirot Shayboniyxon qo'liga o'tadi. Ko'pgina san'at ahli Hirotidan chiqib ketadi. Behzod san'atiga shaydo bo'lgan Shayboniyxon unga qulay sharoitlar yaratib beradi.

Shayboniyxon o'z vaqtida Buxoroda tahsil olgan bo'lib, ilimli, adabiyot va san'at homiysi sifatida ham tanilgan. Kamoliddin Behzodning Shayboniyxon portretini chizish tarixini adib Primkul Kodirov uzining «Yulduzli tunlar» kitobida kuyidagicha tasvirlaydi: «Shayboniyxon Kaxdistondan Bogi Jaxonorogacha kuchib kelib, Xirotning mashxur san'atkorlarini uz xuzuriga chakirtiradi. ...Xonning maslaxatguyi mulla Abduraxim raem chizishni shialar va rofiylarning ishi», - deb yomon kursa xam, Shayboniyxon Behzodning rasmlari Xusayn Boykaroni kanchalik mashxur kilganini bilar, endi bu musavvirning iste'dodidan uz shuxrati uchun foydalanishni istar edi.

Behzodga Shayboniyxonning rasmini chizish topshiriladi. Musavvirning iltimosi bilan xonni kil-kizil kimxob kurpa ustiga utkazdilar, uning orkasiga kora baxmal bolish kuydilar, beliga ingichka oltin mukovali kichik daftar, kalam va siyoxdon kuydilar. Uttiz yildan beri rassomlik kilib yurib, kupgina podshoxlarni kurgan va ular bilan muomala kilishni yaxshi biladigan Behzod Shayboniyxonga xam fakat makto'v yokishini alakachon paykagan edi.

«Xazratimni argumok ot ""ustida kilich yalangochlagan paytlarida tasvirlashim mumkin. Birok xozir sizning eng zur lashkarboshi ekanligingiz xammaga ayon. Ammo olam axli sizning kup yil madrasalarda ukigan fozil imomi zamon ekanligingizni xam suratda kurmogi kerak. Shu sababli fakir sizni mukaddas kitobu oltin kalam bilan tasvir etmokchiman!»

... Surat tayyor bulgach Shayboniyxon, Muxammad Solix va bir necha muldozimlar Behzod ishlagan xonaga tuplandilar... Suratda Shayboniyxon kupni kurgan tajribali odam ekanligini anik kuzga tashlanib turardi. Buyoklar Behzodga xos yuksak maxorat bilan ifodalangan edi. Oddiy odam rasmda xech bir kamchilik topolmas, Behzod xonni izzat-ikrom bilan tasvirladi», - deb uylar edi. Pekin, muxammad Solix xonning tagidagi kurpachani rangi kip-kizil kon rangida ekanligini sezdi. Xon kurpa ustida emas, guyo kon daryosi ustida utirganga uxshar edi. Xonning beliga boglangan ingichka oltin kamarining uchi chalmashgan oyoklari tagidan xudi koramtir boshli sarik ilonga uxshib buralib chikib turar edi. Xon suyangan kora boshlish xam kora kuchlarning timsoliga uxshardi.

Shayboniyxon Behzod tasviridagi shertaxlit Xusayn Boykaroni esladi. Xusayn Boykaroni safarga chikkan paytini tasvir etgan boshka bir rasmda guyo bulutlar xam, osmon xam, xatto togu-toshlar xam podshoxning ketidan ergashib, u ketayotgan tomonga intilib borayotgandek kursatilgan edi. Temuriylarni buncha uluglagan Behzod Shayboniyxonni jun bir odam kilib tasvirlaganga uxshardi. ... - muykalamni menga Bering! - dedi.

... Shayboniyxon koramtir kungir buyokka botirib kuyilgan mukalamni oldi. U Buxoroda madrasada ukib yurgan paytlarida surat chizishni xam ancha mapu kilgan, muykalamni salgpal bilar edi.

- Sokolni durustrok chizmok kerak! - deb Shayboniyxon uzining suratida - kulok yakinida juda siyrak kuringan sokolni biroz kalinlashtirmokchi buldi. Ammo muykalamda buyok kuprok; ekan kulok oldidagi sokol birdan kigizday kalinlashib ketdi.

... Xonning kuli bilan chaplangan sokol kulok yakiniga yopishtirib kuiilgan pustak parchasiga uxshar edi. BSX.ZOD ichida: "Battar bulsin!" -dedi-yu, xon bu sokolni kanday xunuk chaplagan bulsa, shundayligicha koldirdi.

XV asrning ikkinchi yarmi miniatyura san'atidagi pasayish davlat tepasiga dindor Xuja Axror kelishi bilan izoxlanadi.

Bu xakda Pirimkul Kodirov "Yulduzli tunlar" romanida (T., "Uzbekistan" 1990) kitobida kuyidagicha yozgan edi: "Temuriylar ishini kuzatib yurgan Shayboniyxon

ularning saltanatlarida Xuja Axror kabi diniy raxbarlar uzlariga mustakil xukmdor bulib olib, mirzolarning x,okiiyatini ichidan zaiflashtirilganini yaxshi bilar edi. Shayboniyxon xonlik xokimiyati bilan diniy xokimiyatni o'z kulida birlashtirib temuriylarga nisbatan katta -bir ustunlikka erishmokda edi... U uz davrining eng zur mafkurasi diniy mafkura ekanligini yaxshi bilardi..." Kamoliddin Behzod Shayboniyxonni Hirotda rasm bo'lgan oddiy, lekin bejirim kiyimda tasvirlangan.

U chordona qurgan holda qora bolishga suyangan holda o'tiribdi. Oldida yozuv ashyolari siyohdon, qalamdon va kitob. Portretida salobatli, baquvvat gavdali, o'z qadrini biladigan kishi sifatida tasvirlangan. Og'zining qimtilganligi va qo'llarining kerilib turishi shu ma'noni ifodalab turadi. Portret to'q qirmizi, qora, zangori, oltin sariq kabi ranglardan foydalangan holda chizilgan.

Shuni alohida qayt qilib aytish mumkinki, Kamoliddin Behzod ijodi ko'p asrlardan beri jahon san'ati ahliga ta'sir ko'rsatib keladi. Respublikamizda uning badiiy merosini o'rganishga katta ahamiyat berilmoqda.

Behzod ijodini tadqiq va targ'ib etishda san'atshunos, faylasuf, tarixchi va adabiyotshunos olimlar tomonidan qator monografiya, risola va ilmiy maqolalar yaratilgan va yaratilmoqda.

Jumladan, N.Norqulovning «Kamoliddin Behzod» (1968), N.Norqulov va .Nizomitdinovlarning «Miniatyura tarixidan lavhalar» (1970), O.Usmonovning «Kamoliddin Behzod va uning naqqoshlik maktabi» (1977), K.Oqilovning «Musavvir Kamoliddin Behzod» (1993), N.Oydinovning «Behzodning nurli mo'jizasi» (1996), B.Mansurovning «Sharq san'atining buyuk namoyandasi» (buyuk musavvir Kamoliddin Behzod) (1977), T.qo'zievning «Jahonni zabt etgan musavvir» (Kamoliddin Behzod 545 yoshda) (1997), «Behzod va tamaddun» (2000), O.Usmonov va A.Madrahimovning «Kamoliddin Behzod» (2000) kabi risolalari yaratildi.

Shuningdek, shoir va yozuvchilar tomonidan yaratilgan roman, doston va she'rlarda Behzod obrazi qalamga olingan. Masalan, Oybekning «Navoiy», P.qodirovning «Yulduzli tunlar» romanidagi kabi epizodik timsol bo'lib emas, Behzod obrazi bir daho sifatida o'z aksini topadi.

Shukur qurbonning «Behzodning bir kuni» dramatik dostoni, O.Bo'rievning «Behzod va Shirin» dostoni, Mahmud Hasaniyning «Naqqoshlarning sultoni» she'ri, Temur Ubaydulloning «Musavvirnoma» kabi she'rlari yaratilgan.

Behzod nomini abadiylashtirib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning Farmoni (1997 yil 23 yanvar)ga binoan Kamoliddin Behzod nomidagi O'zbekiston Respublikasi Davlat mukofoti ta'sis etildi.

Toshkentdagi Milliy rassomlik va dizayn institutiga Kamoliddin Behzod nomi berildi. 1997 yil 27 avgustda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni bo'yicha O'zbekistonda birinchi marta T.Boltaboev, X.Nazarov, G'.Kamolov, A.Ilhomov, B.Rahmonberdiev, R.Matchonovlar Behzod nomidagi O'zbekiston Respublikasi Davlat mukofotini olishga muyassar bo'ldilar.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori (1997 yil 23 dekabr)ga binoan Toshkent va Samarqand shaharlarida va xorijiy mamlakatlarda YuNESKO homiyligida Behzod tavalludining 545 yilligi keng nishonlandi. 2000 yil noyabrda bu tadbir dunyoning 190 mamlakatida nishonlandi.

Toshkentda 2000 yil 23 noyabrda Temuriylar tarixi Davlat muzeyida «Kamoliddin Behzod va Sharq miniatyura san'ati» xalqaro anjuman bo'ldi. Ushbu anjumanda Britaniya, Turkiya, Hindiston, Ozarbayjon, Tojikiston va O'zbekiston san'atshunos olimlari ishtirok etdilar.

Yubiley munosabati bilan Behzod hayoti va ijodiga bag'ishlangan bir qancha tadbirlar amalga oshirildi.

Jumladan, «Kamoliddin Behzod» hujjatli filmi yaratildi (2000 y). Behzod bog'i barpo etildi. Maxsus muzey ochildi. Albomlar, taqdimlar chiqarildi. Ommaviy axborot vositalarida ko'plab eshittirish, ko'rsatuv va vaqtli matbuotlarda maqolalar berilayotir.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi O'zbekistondan chetga olib ketilgan va xalq boyligi bo'lgan arxiv hujjatlarini qaytarib olib kelish bo'yicha tashkil etilgan maxsus komissiya Kamoliddin Behzodning dunyo bo'ylab sochilib ketgan merosini, kutubxona hamda muzeylarda saqlanib qolgan asarlarini o'rganib chiqadi. Bevosita Kamoliddin Behzod qalamiga mansub 120 dan ortiq miniatyura asarlari borligi aniqlandi.

Masalan, Oksforddagi (Buyuk Britaniya) Bodlian kutubxonasida Alisher Navoiy «Xamsa»sida Kamoliddin Behzod mo'yqalami bilan ishlangan miniatyuralarning asliyati mavjudligi aniqlandi. Mazkur kutubxonaning Sharq bo'limida «Xamsa»ga kirgan 4 ta asarning o'zidagina Behzod mo'yqalamiga mansub miniatyuralarning soni tani tashkil etadi.

Yana, dunyodagi eng yirik ilmiy xazinalardan biri bo'lgan Londondagi Britaniya kutubxonasida Nizomiyning «Xamsa»si qo'lyozmasiga Behzod tomonidan ishlangan 27 ta miniatyura borligi aniqlandi. qohira shahridagi Milliy kutubxonada saqlanayotgan Kamoliddin Behzod va uning shogirdlari dahosi bilan yaratilgan miniatyura san'atining noyob durdonalari aniqlandi. Ularning 6 tasi shaxsan Kamoliddin Behzod mo'yqalami bilan chizilgan. 10 ga yaqini uning shogirdlari qosim Ali, Shayxzoda va Sulton Muhammad ijodining mahsuli ekan.

Shuningdek, Istambul shahridagi «To'pkapi» saroyi kutubxonalarida saqlanayotgan Kamoliddin Behzodning Hisrav Dehlaviy va Nizomiy asarlariga ishlangan 14 dona miniatyura asarlaridan olingan ko'rgazmalar uchun moslashtirilgan rangli suratlar ham shular jumlasidandir. Viktoriya va Albert muzeyida saqlanayotgan hamda Sankt-Peterburgdagi Saltikov-Shedrin kutubxonasida saqlanayotgan miniatyuralarning egizak nusxalari yaratilib O'zbekistonga olib kelindi.

Xulosa qilib aytganda, Kamoliddin Behzod va uning shogirdlari tomonidan yaratilgan miniatyuralar asarlarining slaydlari, kompakt disk hamda faksimil reprodukshtiyalari, ko'rgazmalar uchun moslashtirilgan transparent shaffof nusxalar olib kelinib Kamoliddin Behzod muzeyiga topshirildi.

1.3. Malik Nabiev ijodi

Nabiev Malik 1916 yilda Toshkent shahrida tavallud topgan va 2008 yilda vafot etgan. Rangtasvirchi rassom, pedagog. 100-rasm. O'zbekiston badiiy akademiyasining akademigi, O'zbekiston halq rassomi. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi.

Nabiev Malik tasviriy san'atning ilk saboqlarini rassom Baxrom Hamdamiydan o'rgangach, ustoz maslaxatiga ko'ra 1933 yilda rassomlik bilim yurtiga o'qishga kiradi. 1937 yilda bilim yurtini tugatganidan so'ng shu erda o'qituvchilik faoliyatini boshlaydi. 1962 yilda Nizomiy nomli Toshkent davlat pedagogik instituti badiiy-grafika fakultetini tugatgan. O'sha yillarda uning san'at borasida mustaqil ijodiy faoliyati boshlangan edi. Rassom urushning og'ir yillarida qishloqlarni kezib, portretlar ishladi, fashistlarni qoralovchi plakatlar chizib, chaqiriqlar, shiorlar yozib, urush orqasidagi mehnat bilan g'alabani yaqinlashtirishga harakat qildi.

Rassom o'z faoliyati davomida tarixiy shaxslar portreti, tarixiy voqealarni tasvirlashga juda qiziqar edi.

Tarixiy shaxslar obrazini yaratish naqadar mushkulligiga qaramasdan ijodkor o'zining tinimsiz mehnati tufayli buyuk siymolar obrazini yuksak badiiy saviyada yarata oldi. Ular amir Temur, Beruniy, Bobur, Ibn Sino, Jomiy va Navoiy, Al Roziy, Al Xorazmiy kabi bir qancha yirik olim, shoir, davlat arboblarning obrazlaridir.

Ana shunday asarlardan bari 1962 yilda yaratilgan Zaxriddin Muhammad Bobur portretidir. Mazkur asarni yaratish maqsadida rassom ko'p yillar davomida izlanishlar olib bordi. U Bobur yashagan joylarda-Andijon, Samarqand, shaharlarida va Afg'oniston, Xindiston kabi shaharlarda bo'ldi. Bobur haqida yaratilgan mo'jaz rangtasvir asarlari bilan tanishdi.

Rassomning ko'p yillik tinimsiz mehnati natijasida yaratilgan Bobur portreti olqishlarga sazovor bo'ldi.

Beruniy tavalludiga 1000 yil to'lishi munosabati bilan 1973 yilda Beruniyning eng yaxshi portreti uchun e'lon qilingan tanlovda Malik Nabievning ishi birinchi mukofotni oldi. Bu portret YuNESKO ning "Kur'er" jurnali muqovasida va xorijiy mamlakatlarning ko'pgina jurnal va gazetalarida ham berildi. 101-rasm.

M.Nabiev ijodida 1994 yilda yaratilgan "Amir Temur portreti" asosiy o'rinni egallaydi. Bu asarda yozish istagi 1941 yilda soxibqiron go'ri ochilib uning kalla suyagi olingani hamda bu asosda Amir Temurning xaykalini rus xaykaltaroshi M.Gerasimov tomonidan ishlashga kirishilgan paytdan boshlangan edi deb eslaydi rassom. Sohibqironning bo suyagini tarix muzeyida o'z ko'zi bilan ko'rgan M.Nabiev uning portretini ishlashga kirishgan edi. 102-rasm.

Buyuk shaxsni portretini ishlash qanchalik ma'suliyatli va murakkab bo'lganligini bilgan rassom bunga ellik yildan ortiq vaqt sarfladi. Bu davrda u Xindiston, Eron, Turkiya, Angliya, Fransiya, Ispaniya kabi mamlakatlarning muzeylari va kutubxonalarida saqlanayotgan Amir Temur hayoti va faoliyati bilan bog'liq bo'lgan mo'jaz rangtasvir asarlarini u xaqda yaratilgan ko'plab adabiyotlarni o'rgandi.

Oxir oqibatda davlat arbobi, harbiy qo'mondan obrazini realistik tarzda zo'r maxorat bilan yaratishga muvaffaq bo'ldi.

1994 yilda eng yaxshi yaratilgan Amir Temur obrazi uchun e'lon qilingan tanlovdan M.Nabievning bu chuvrat bosh mukofatga sazovor bo'ldi.

Rassomning tarixiy janrda yaratilgan ayrim asarlarida ozodlik uchun bo'lgan halq qo'zg'olonlari mohiyati ochib beriladi. M.Nabiev avloddan-avlodga hikoya qilinib kelinayotgan tarixiy voqealarni astoydil o'rganib, tarix sirlarini jonli ranglarda tasvirlashga muvaffaq bo'lgan. Uning ana shunday asarlaridan biri Iskandar Zulqarnaynga qarshi ozodlik uchun kurash haqidagi "Spitamen qo'zg'oloni" suvratidir. Shu janrdagi yaratilgan asarlar qatoriga "Samarqandda hunarmandlar qo'zg'oloni", "Jizzax qo'zg'oloni" kabi ishlarni kiritish mumkin.

M.Nabiev na faqat rassom mohir pedagog, ustoz va etuk murabbiy hamdir. U 1960 yildan boshlab ko'p yillar davomida Nizomiy nomli Toshkent davlat pedagogika instituti (universitet)ning badiiy-grafika fakultetida kafedra mudiri va professor sifatida faoliyat ko'rsatib keldi.

Rassom maktab, bilim yurtlarining o'qituvchilari, talabalar uchun metodik ishlar yaratishda ham samarali mehnat qildi. Uning bu boradagi ishlarining natijasi kitob shaklida chop etilgan.

Ijodkorning sermaxsul ijodiy faoliyati xukumat tomonidan munosib taqdirlanib, unga "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni berilgan.

II BOB.

2.1. Ijodiy portret yaratish qoida hamda usullari.

Odam boshining tuzilishi o'ta murakkab va ko'pqirralidir. Har bir odam boshining kalla suyagi tuzilishi va tashqi ko'rinishi, plastik tasviri o'zining betakror xususiyatlariga ega. Shu bilan birga boshning umumiy shakli, uning konstruktiv – anatomik asosi bir xilda bo'lgan tuzilish konuniyatiga asoslanadi. inson boshini tugri tasvirlash uchun rasm chizuvchi uning shakli, kala suyagining kislmlari va ular urtasidagi uzaro bogliklikni xamda tasvirlash jarayonida olingan bilimlarni kullay bilishi kerak. Ushbu ko'nikmalarni o'zlashtirishi uchun u juda ko'plab mashq kilishi zarur. Talabalar ta'lim jarayonida dasturda ko'zda tutilgan quyidagi vazifalarni bajaradilar;

1. Boshning gipsli bo'laklari va gipsli modeli.
2. Tirik bosh, boshning elka kamari bilan rasmini bajarish.

Bunda ular tasvir tuzilishining ayrim qirralarini qayta-qayta takrorlaydilar. Vaholanki, har bir o'quv topshirig'ida talaba katta bilim va malakalarni o'zlashtirib olishi kerakki, buni birgina vazifani bajarish jarayonida amalga oshirib bo'lmaydi. Boshning umumiy shaklini aniqlash, chiziqli-konstruktiv tuzilma hosil qilish va hokazo tamoyillarni o'zlashtirish uchun maxsus mashqlar kerak. Talabalar odatda bunga rioya qilmaydilar, ular uchun bu mashqning hojati yo'qdek ko'rinadi. Go'yoki ularga maxsus mashqlar yordami kerak emasdek tuyuladi va mazkur mashqlar bosqichli rasmlar chizish paytida ham amalga oshiraveriladi degan tushuncha paydo bo'lishi mumkin. Lekin rasm chizish paytida talaba uni o'zlashtirib olomaydi. Natijada ishni o'z holicha davom ettiraveradi va oldinga intilmay, ko'nikmadan foydalanaveradi.

Bosh shakl tuzilishi qonuniyatlari va uni tasvirlash qoidalarini o'rganishda talaba eng avvalo, tasvirlashning dastlabki bosqichida kechadigan tahlil usuli va boshning umumiy shaklini tasvirlashni o'zlashtirib olishi zarur. Garchi akademik rasm

chizishda ishning har bir bosqichi qisqa vaqt davom etsa ham talaba uning mazmunini tushunib maxsus mashqlar yordamida amalda uning har bir bosqichini puxta o'zlashtirib olishi kerak. quyida bosh shakli tuzilishini tahlil qilish va tasvirlash usulining mohiyatini batafsilroq ko'rib chiqamiz.

Bosh shaklini tahlil qilish va tasvirlash usuli

Har bir buyumni to'la idrok etishda yorug'lik asos bo'lganidek, bosh shaklini idrok qilishda ham rassomga yorug'lik yordam beradi. Nur bosh usti bo'ylab yoyilib, rassomga uning plastikasini ko'rish imkonini beradi. Dastlab inson bosh shaklini juda tez umumlashgan holda idrok etadi; kalla go'yo shardek, bo'yin stilindrik, burun prizmadek, ko'z sharsimon qobiqdek, ko'rinadi. Faqatgina diqqat bilan qaragandagina rassom boshning ham yaxlit, ham uning qismlari plastik tavsifining nozik tomonlarini ilg'ay boshlaydi.

Psixologik nuqtay nazardan qaraganda, inson dastlab predmetning umumiy shaklini, shundan keyingina uning bo'laklarini idrok eta boshlaydi. Ilmiy tadqiqot natijalari ko'rib idrok etish jarayonining beshta asosiy bosqichini (fazasini) ajratib ko'rsatishga asos bo'ladi;

1. Predmetning fazodagi holati bilan uning umumiy nisbatlarini taxminiy baholash o'rtasidagi farqni ajratish:
2. Shaklning rakursda turishi:
3. Perspektiv tomonlarining o'zgarishini farqlash:
4. Shaklni uning detallari farqlanmay berilganda bir xil umumiy tarzda idrok etish:
5. Shaklni uning detallari bilan to'liq holda bir xilda aks etish.

Ko'rish idroki qonuniyatlariga rioya qilgan holda rasm chizuvchi birinchi navbatda, boshning umumiy ko'rinishini tasvirlab, uning shakli-shamoyili xususiyatlarini ko'rsatishi zarur.

Uyg'onish davridayoq rassomlar ushbu zaruriyatni ko'rsatib o'tganlar. Masalan, Alberti o'zining «Rangtasvir to'g'risida uch kitob» asarida shunday yozadi.

«Biz biror narsaga qarar ekanmiz, u fazoda ma'lum joyni egallab turganini ko'ramiz. Keyinchalik, ushbu jismga chuqurroq qarab, uning barcha ko'p sonli bo'laklarini uyg'unlashib ketganligini seza boshlaymiz».

Har qanday predmetning shakli (bu o'rinda odam boshi ham) ko'p sonli yuzalardan iborat 1-rasm. Rasm chizuvchining vazifasi bu yuzalar ma'lum shaklni hosil qilgan holda o'zaro qanday uyg'unlashib ketganligini to'g'ri tushunishdan iboratdir. Lekin bu shaklni qog'ozda to'g'ri tasvirlash uchun talaba katta, uch o'lchamli jismning real ko'rinishini ilg'ab olishi, ya'ni o'z idrokini fazodagi ko'rinishi bilan qog'oz sirtidagi ko'rinishiga moslay ola bilishi kerak. Bosh shaklini tasvirlashchizuvchidan perspektiva nazariyasi borasidagi bilimlar, tasvir qurish jarayonida esa ularning qoidalaridan foydalana bilishni talab etadi.

Ko'p yillik amaliyot natijalari shuni ko'rsatadiki, oddiy geometrik jismning perspektiv tasvirini qurish unchalik qiyin ish emas, lekin odam boshi kabi murakkab shaklning perspektiv tasairini bajarish anchagina murakkab ish. Shuning uchun ta'limning pedagogik prinstipi – oddiydan murakkablikka, umumiylikdan xususiylikka prinstipidan kelib chiqib uyg'onish davri rassomlari boshni tasvirlashga o'rgatishda eng oddiy geometrik shakllarni qo'llashdan kelib chiqqanlar, ya'ni ham yaxlit bosh, ham uning har bir qismini geometrik asosda ko'rishga va tasavvur qilishga o'rgatganlar. Rasm chizivchi ana shu prinstipga amal qilib, boshni haykal kabi yo'nib uning umumlashgan shaklini tasavvur qilishi kerak. Bu A.Dyurer rasmida ko'rgazma tarzida berilgan (2-rasm). Odam boshi shaklini tasvirlashni tahlil etish va qurishning bunday usuli bilan ko'p rassomlar foydalanganlar. Golbeyn (3-rasm), Shon (4-rasm) chizgan rasmlari bunga misol bo'la oladi. Amaliyot shuni isbot etdiki, kesib ishlash usuli tasvir qurishning prespektiv qurilish qoidasini o'zlashtirib olishni ancha engillashtiradi. Uyg'onish davridan keyin, hatto hozirgi kungacha bu uslubdan rassom pedagoglar foydalanib kelmoqdalar.

Binobarin, etuk rassom-pedagog D.Kardovskiy rasm chizish prinstiplari va o'qitish uslublari haqida gapirib shunday degan edi; ***«Xo'sh, shaklning o'zi nimaq***

– Bu geometrik jismlar jumladan; kub, shar, stilindr va hokazolardir. Ular u yoki bu xarakterga ega bo'lgan jismlardir. Tirik naturalarning shakllari albatta to'g'ri geometrik shakl bo'la olmaydi, lekin aslida ular ham ushbu geometrik shakllarga yaqin turadi».

XYII – XIX asr rassom-pedagoglari ham murakkab shaklni tasvirlashda eng sodda geometrik shakllardan kelib chiqqanlar (Karrachi, Preysler, Losenko, Shebuev, Sapojnikov, Dyupyui, Chistyakoya, Ashbe va ko'pchilik boshqalar). Masalan, yugoslav rassom pedagogi Anton Ashbe bosh rasmini chizishga o'rgatish tizimi uchun «shar prinstipi» va tus bilan modellashtirishni asos qilib olgan. Rassom va pedagog D.Kardovskiy tasvirlashning dastlabki bosqichida «*kesib*» chizish usulidan foydalanishdir, deb hisoblashgan. Shuni takidlash zarurki, turli maktablarning va yo'nalishlarning deyarli barcha rassomlari bitta xulosaga kelganlar; bosh tuzilishini tasvirlashda umumiy hajm ko'rinishini bo'rttirgan holda katta boshlash, shundan keyingina bo'laklarga o'tish kerak.

Bosh tuzilishining umumiy shakli nima o'ziq Bu o'z ko'rinishi jihatidan tuxum shaklini eslatuachi uch o'lchamli hajmli jismdir. Bosh rasmini chizishga o'rgatishda hamma o'qituvchilar talabalar diqqat e'tiborlarini shakl qurilishining ana shu xususiyatiga qaratganlar. Bu narsani biz Preysler, Losenko, Sapojnikov, Kardovskiy va boshqalarning o'quv qurollarida ham ko'rishimiz mumkin. Rassom-pedagoglar odam boshi rasmini tasvirlashni o'rgatar ekanlar, har doim uning tuxumsimon shaklining tahlilidan boshlaganlar. A.Solovev, G.Smirnov, E.Alekseeva bosh rasmini chizishni tuxumsimon massa tusini tasvirlashdan boshlashni tavsiya etganlar. (5-rasm). Bu o'rinda boshlovchi rassomga boshning qismlardan emas, balki umumiylikdan, dastlab uning umumiy shaklini, shundan so'ng esa asta-sekin bo'laklarini tasvirlashni o'zlashtirib olishni tavsiya etganlar.

«**Kesib ishlash**» usuli qog'oz yuzasidan bosh shaklining ham umumiy ham tarkibiy qismlarini to'g'ri tasvirlashga yordam beradi. Bu usul talabalarning diqqat e'tiborini tashqi bo'laklarga (qoshlar, kipriklar va h.k.) emas, balki katta

shaklning asosiy mazmuniga qaratish imkonini beradi. Buni tushunib olish qiyin emasdek tuyulsada, lekin uni rasmda ko'rsata olish ancha murakkab ishdir. Bu masalani ancha engillashtirish uchun o'tgan asrdagi frantsuz rassomlari aka-uka Dyupyuilar bosh rasmini chizishga o'rgatishga shu usuldan foydalanganlar (6-rasm).

Bosh shaklini tahlil qilar ekanmiz, umumiy ko'rinishda uning kalla suyagi bilan yo'g'rilgan tuzilishning ma'lum qonuniyatlariga ega ekanligini ko'ramiz.

Mashhur haykaltarosh A.Golubkina shunday yozgan edi: «masalan, yuz tuzilishini qismlarga ajratib tashlang, siz ularning hammasi 14 ta asosiy bo'laklardan iboratligini ko'ramiz: 1-peshona bugrilari Bilan o'rta peshona, peshona bugrilaridan chakka qism suyagigacha 2-ta reja, 2-ta chakkadan dahandan pastki qism jag' chetigacha, 2-tasi ko'z kosachalarigacha, 2-tasi ko'z kosalaridan burun va og'iz burchaklarigacha 2-tasi og'izdan jag' suyagi va chaynash muskuligacha va burundan dahan ostigacha. O'amma insonlarning yuzlari ham har doim ana shu 14 ta rejadan iborat bo'ladi: faqat reja shakllarigina o'zgaradi xolos». A.Golubkina boshning sxematik rasmini tavsiya etar ekan, umumiy shaklni to'g'ri tasvirlashga yordam beradigan asosiy yuza va chegaralarning taqsimlanishiga e'tiborni qaratish lozimligi haqida gapiradi.

Professor M.Kurilko bosh shakl tuzilishi sxemasini tahlil qila borib, bunda bosh qismi yuzalarining o'sha 14 ta yuzasiga asoslangan va detallarni bo'laklarga shakl berishda (burun, ko'zlar, lab, dahan) aniqliklar kiritgan hamda bosh va bo'yin shakllari o'rtasidagi bog'lanishni ko'rgazma tarzida ko'rsatib bergan.

Tasvirda bosh shaklining umumiy xarakterini bo'rttirish va kenglikda alohida yuzalar yo'nalishiga aniqlik kiritish borish, to'g'ri shakllashni kuzatish kerak. Rasmda shaklni ko'rsatishdan eng asosiy maqsad shundan iboratki, unda bosh shaklini yaxlit, eng xarakterli joylarini alohida bo'rttirib ko'rsatishdir. Katta shaklni ifodalash usuli bo'yicha ishlash rassomni shakl tuzilishi ikir-chikirlaridan voz kechib, faqat hajmning kata bo'laklariga e'tiborni qaratish, yaxlitlik, umumiylikni ko'ra bilishga intilishga majbur etadi. Yaxlitlikni ko'ra bilishga o'rgatish uchun bu yaxlitlik qanday

elementlardan tashkil topganligi, bu bo'lak va qismlar o'zaro qanday uyg'unlashishini bilish kerak. Bosh shaklini to'g'ritasvirlash talabidan naturani ko'rib chiqish va tasvirlashda metodik bosqichlarda ishlashni talab etadi. Tasvirda kata shaklni tahlil qilish va ifodalash usulini egallash, chizuvchiga tasvir tuzishning natijalarini oldindan ko'ra bilish, ya'ni uning chizayotgan rasmi oxir oqibatda qanday ko'rinish kasb etishini oldindan tasavvur etish tajribasini beradi.

Bunday o'quv mashqlari asosida tahliliy usul yotishi kerak. Rassom bosh shaklini tasvirlar ekan, hajm alohida yuzalardan qanday tashkil topa borishini, shaklning konstruktiv asosi qanday shakllanayotganini ko'ra bilishi kerak. Rassom shaklni go'yo tomosha qilayotgandek, qalam tutgan qo'l xarakati esa, rasmdagi anna shum ayda-chuydalarsiz umumlashgan shaklni plastik ifodaga bo'ysundirishi kerak.

Bosh shaklining hajmini tasvirlashda shu narsani nazarda tutish kerakki, boshning ikkita asosiy qismi mavjud. Bular: kalla suyagining sharsimon shakli va taqasimon jag' suyagi shaklidir 7-rasm. Ko'pchilik rasm chizuvchilar soqolli erkak kishining boshini tasvirlashda bu xususiyatni chetda tushirib qoldiradilar (masalan, Gomer, Zevs, Gerakl va boshqalarni chizishda). Bu o'rinda dahan, ya'ni jag'ning pastki qismi orqa kala suyagidan uzoqlashib qolgandek, xudi havoda muallaqturgandek, kala suyagi qobig'idan chiqib qolgandek tuyuladi. Rassom kala suyagining umumiy tuzilishini hisobga olib jag'ning ostki qismini kala suyagining asosiy so'ngaklari bilan to'g'ri tutashtirishi lozim.

Bosh shaklini va uning tarkibiy qismlarini tahlil etishda davom etib, kata shaklni bo'rtirib chiqarish bilan bog'liq yana bir qator qonuniyatlarni ta'kidlab o'tish zarur. Masalan, burun shakli asosida prizma yotadi. Burun shakli tuzilishining bu qonuniyatini bilgan rassom uchun uni qog'oz yuzasida tasvirlash endi unchalik qiyinchilik tug'dirmaydi. Rasmda burun shaklining perspektiv ko'rinishini berish ancha murakkab ish. Prizmaning perspektiv ko'rinishini qurish hatto endigina boshlovchi rassomga ham unchalik qiyinchilik tug'dirmaydi. Bundan tashqari, shakl va uni yuzada ifodalashning bunday tahlil qilish usulidan foydalanish rassomga

shaklni tus jihatdan ham hal etishga yordam beradi. qog'oz sirtidan to'rt yuza Bilan chegaralangan burun prizmasini belgilab olgan rassom darhol tus alomatlari – nur, soya, yarim soyalarni ajratib oladi va shundan so'ng burunni o'ziga qarab xarakterini aniqlaydi va shaklni mayda, bo'laklarini modellashga kirishadi 8-rasm. Ko'z shakli shar shakli Bilan bir xildir va maxsus adabiyotlarda «ko'z soqqasi» deb yuritilishi bejiz emas. Lekin bosh rasmini chizishda shuni hisobga olish kerakki, ko'z soqqasi (o'zbek shevalarida «ko'z kosasi» ham deb yuritiladi) ko'z kosasining uchdan bir qismigina tashqarida ko'rinadi. Bundan tashqari, ko'z soqqasi va ko'z kosasiga o'tishdan qovoqlar mo''tadilasha boshlaydi va shaklga ishlov berish bosiqroq bo'lishi kerak. Ko'pincha talabalar ko'zning sharsimon shaklini ifodalay turib «pingpon koptokchasini» chizib qo'yadilar va bu inson boshining real ko'rinish shakliga putur etkazadi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, boshni tasvirlashning dastlabki bosqichida «*kesib ishlash*» usulidan foydalanganda bo'rttirib yuborish va «*kubizm*» yaratishga berilib ketish karak emas. Bunday holatni ba'zi rasm chizuvchilarda kuzatish mumkin. Bosqichli vazifa ishlashda shakl tuzishning yo'nib ishlash bosqichi unchalik ahamiyatli o'rinni egallamaydi, faqat rassomga yordam beradi xolos.

«Kesib ishlash» usulidan foydalanib tasvirlashda rasm chizuvchida eng asosiy narsani ko'ra bilish, ko'ringan narsani mantiqan idrok eti shva mazkur plastik obrazini ochiq tasavvur etish malakasini orttiradi. Agar rassom bosh shakli xususiyatlarini idrok eta olmasa va tasavvur qilmasa, faqat o'z tuyg'ulari Bilan cheklanib qolsa, u holda u naturadan passiv tarzda nuxsa ko'chirishga, tashqi qurinishni shundayligicha o'xshatib qo'ya qolishga majbur bo'ladi. Rassom obrazli tasavvur Bilan ishlamas ekan, umumlashtirishga yaqinlasha olmaydi, yoki idrok etish nuqtai nazaridan qarayodigan bo'lsak, bunday tasavvur borliqdan tushirib olingan surat, go'yoki naturaning umumlashgan obrazidir. Psixolog B.Lomov tasavvur qilish jarayonini tushuntira borib u yoki bu ob'ektni tasavvur etish uni ko'p martalab idrok etish jarayonida shakllanadi deb ta'kidlaydi. **«Idrok etishdan tasavvur qilishga o'tishdan obraz tuzilmasi o'zgaradi. Ob'ektning bir alomati xudi bo'rttirib ko'rsatiladigandek,**

kuchaytirilayotgandek, boshqalari esa qorong'uda, e'tibordan qolib ketayotgandek va zaiflashayotgandek tuyuladi. Boshqacha aytganda obraz sxematizmi sodir bo'ladi» - deb yozadi. Shunday qilib, rasm chizish san'atini egallashda «Kesib ishlash» usulining samaradorligi va maqsadga muvofiqligi faqat badiiy amaliyotida emas, balki psixologiya – pedagogika fanlari ma'lumotlari Bilan ham o'z isbotini topgan.

«Kesib ishlash» usuli rassomga tasvir qurishning uslubiy bosqichlarini o'rgatibgina qolmay, balki realistik san'at tilini egallashga ham yordam beradi. Talaba yuzaning kenglikdagi yo'nalishini aniqlaganda va uni rasmda to'g'ri Bera olishga intilganda u ob'ekt obrazini grafika vositalari Bilan berishga o'rganadi, binobarin rasm tiliga ega bo'ladi.

Lekin rasmda tahlil va ifodalash usulini o'rganish talaba uchun ko'pincha qiyinchilik tug'diradi. U «Kata shakl» tuzilishining umumiy ko'rinishini tasvirlar ekan, odatda boshning chiziqli tashqi ko'rinishi Bilan cheklanib qolib, na bosh shaklning xarakter iva na uning hajmini o'rganmay turib bir yo'la bo'laklarini tasvirlashga o'tib ketadi. Shundan u shakl asosini yuzaga chiqarmay turib, detallarni burun, ko'z, lablar shakli tuzilishlarini ko'chirib chiza boshlaydi.

Shuning uchun ham yuqorida aytib o'tganimizdek «kesib ishlash» usuli Bilan kata shakl ifodasini berishning uslubini o'zlashtirib olish uchun maxsus mashqlar qilish zarur bo'ladi.

Dastlab bunday mashqlarni gipsdan ishlangan boshni oldingizga qo'yib chizishdan boshlash mumkin. Buning uchun boshning umumlashgan shaklini yaxlit holda tasvirlab, keyin esa asosiy detallarining kata shakllarini, go'yo burunni emas, balki prizmani, binobarin hammasini umumlashgan ko'rinishda chizish vazifasini qo'ying. Bunda burun prizmasini ko'zning sharsimon shakllarini belgilab olib qismlar va yaxlitlik o'rtasidagi proporstional munosabatlilikni diqqat bilan kuzatish zarur. 9a,b – rasmda bunday mashqlar misol tariqasida berilgan. Talaba bunday mashqlarni bajara borib kesik bosh shaklini ifodalashga jalb etilgan maqsad emas, balki tasvir qurish

jarayoni Bilan ijodiy bog'liq bo'lgan boshlang'ich, xizmat bosqichi ekanligini tushunib etsin. Shuning uchun gips modellardan bajariladigan «kesik»ning soddalashtirilgan ifodasi Bilan birga tirik bosh rasmlarni ham chizishi kerak. Rassom oynaga qarabo'z rasmini chizsa, bu usul yaxshiroq o'zlashtiriladi. Bu o'rinda u diqqatini tortadigan mayda detallarni ko'chirib qo'ya qolishdan bosh tortib, faqat hajmining asosiy massasini chizishga diqqat-e'tiborini qaratish, bu borada undan katta iroda va qo'yilgan vazifani bajarishga bo'lgan ishonch hissi talab etiladi. 9a-rasm bunday vazifani bajarish mashqi qo'l keladi. Bunda biz talabaning ikkinchi darajali alomatlar (soch turmagi, teri ajinlari va hokazolar)ga ahamiyat bermay boshning asosiy «katta» shaklini va uning tarkibiy qismlari – burunning prizmatik shakli, ko'zlarining sharsimon shaklini va lablar hamda dahanining umumlashgan shakllarini bajarishini ko'ramiz. Yo'nib ishlash usuli odatga aylanib qolmasligi, balki tasvir tuzishning qisqa bosqichi sifatida qaralishi uchun bir yo'la yanada real ifodali rasm ishlash ham zarur 9b-rasm. Tasvir tuzishning umumiy jarayonini o'zlashtirish uchun gips boshdan davomli rasm chizish kerak. Bu topshiriqlar mashq kabi qaralganligi uchun bunday rasmni chizishga ko'pi bilan 3-5 soat vaqt sariflanadi.


Katta shaklni ko'ra bilish va uni tasvirlash ishda muvaffaqiyat qozonishga ko'mak bo'ladi. Rasm chizishning buyuk ustalari katta shaklni ajib tarzda egallaganlar. Masalan, V.Savistkiyda bu narsani yaxshi kuzatish mumkin. Bu erda biz ko'z olmasi sharsimon shaklini, burunning prizmatik shaklini, boshning tuxumsimon shaklini aniq ko'ramiz.

Go'yo bu narsalarni bunchalik maydalab tushuntirish talab qilinishi zarur emasdek bo'lsa ham talabalar ta'limining dastlabki bosqichlaridayoq umumiylikka degan prinsipni yaxshi o'zlashtirib oladilar. Lekin amalda bu prinsipni har turli yo'llar bilan amalga oshirish mumkin. P.Chistyakov o'z o'quvchilarini (shogirdlari) «*sinov rasm chizish*» tizimi yo'li bilan, A.Solovev *tus munosabatlari* yo'li bilan ta'lim bergan, A.Deyneka chiziqli – konstruktiv rasmdan qochgan. Shu bilan birga rasmga turlicha ijodiy yondoshish bo'lishiga qaramay, natura tahlilining prinsiplari va bosh tuzulish shaklini realistik ifodalash bilan qurish qonuniyatlari hamma uchun

yagonaligicha qoladi. Chizuvchi bularning hammasini yaxshi tushunib olishi uchun unga doimiy va batafsil tushuntirishlar zarur.

Talaba tasvirda boshning asosiy shaklini ifoda etishni o'rganib olib, shakl tarkibini yanada chuqurroq o'rganishga o'ta boshlaydi. Odam boshining shakli juda murakkab va u konstruktiv asos bilan belgilanadi. **«Konstruktsiya»** deyilganda biz **«tuzilish»** qismlarining o'zaro joylashuvi, shakl tarkibini nazarda tutamiz. Biz **«konstruktiv jihatdan uyg'un»** deganimizda yaxshi qurilgan tasvirni nazarda tutamiz.

Odam boshini tasvirlashda muvaffaqiyat qozonish uchun shaklning konstruktiv jihatdan ko'rinishini ko'rish va uni rasmda ifoda eta bilish qonuniyatlarini tushuna bilish kerak.



2.2. Odam boshini chizish

Odam rasmini ishlash vaqtida doimo shuni yodda tutish kerakki, hajmli shakllar rasm chizishning asosi bo'lib hisoblanadi, rasm chizish ketma-ketligi esa umumiydan alohida qismlarga va qismlardan boyitilgan umumiy tasvirga o'tish tartibida amalga oshirilishi kerak. Naturadan rasm chizish tartibiga amal qilmaslik natijasida, ishlangan tasvir notabiiy ko'rinish kasb etadi. Har bir ish o'z boshlanishi, davom etishi va yakunlanishiga ega bo'lganidek, rasm chizish jarayoni ham ushbu to'rtta bosqich asosida amalga oshiriladi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, umumiydan qismlarga, oddiydan murakkabga o'tish tartibi – rasm chizish jarayonidagi asosiy bosqichlari bo'lib hisoblanadi. Ish boshlash avvalida rassom rasmning umumiy ko'rinishi belgilab olinadi. Bu erda u shaklning joylashuvi, harakati va xarakterini hisobga olishi lozim. Mashg'ulotning mazmuni: portretlarda kishi bosh qismining o'lchamlari o'z o'lchamidan bir oz kichik olish qabul qilingan. Ayni paytda tasvirllovchi kishi bilan tasvirlanuvchi kishi orasidagi masofa hisobga olinadi. Albatta, nisbatlar yo'qotilmagan holda masofada turib amal qilmoqni talab etadi.



Portretlar o'quv mashg'ulotlarida bosh qismi qog'ozning yarmisidan yuqorida joylashtiriladi. Ro'paradan chizilgan portret qog'ozga nisbatan ikki yon tomondan bir xil uzoqlikda joylashmog'i lozim. Profil (yon) tomondan chizilgan paytda esa yuz tomonda, boshning orqa tomoniga nisbatan ko'proq joy qoldirish qabul qilingan, chunki yuz qismi boshning aynan xarakterli qismidir. Eng avvalo, katta shakldagi xarakterni topmoq uchun boshning kengligi bo'yicha nisbatni topib olishga harakat qilmoq

kerak bo'ladi.

1-bosqich. Ayol portretining engil chizgilarini mashq qilish.

2-bosqich. Ayol qiyofachining portretini qog'ozga joylashtirish mashqlari.

3-bosqich. qurish va joylashtirish mashqlarini davomi.

4-bosqich. qurish ishlarini davomi va soya yorug'larini belgilash.

5-bosqich. Konstruktiv-anatomik tuzilish asoslarini hisobga olgan holda qiyofachi yuz tuzilishi o'ziga o'xshatishga erishish.

6-bosqich. Tuslash bosqichini davom ettirish.

7-bosqich. Portretni umumiyashtirish va yakunlash ishlarini olib borish.



Mashg'ulotning jixozlanishi:

Yosh ayol -qiyofachi, ma'ruza matni, uslubiy fonnidagi rasmlar, portret, qog'oz, qalam va boshq.


Zamonaviy videotexnika yordamida uslublarning tahlili, kompyuterdan foydalanib ishlanma ko'rsatish.

Avvalo shu narsalarni belgilab olmoq kerak: asosiy o'q chiziq, qaysiki yuz qismining o'rtasidan o'tuvchi vertikal chiziq, qolgan yordamchi o'q chiziqlar esa yuz qismida gorizontal holatda parallel joylashib, ko'z qorachig'idan, burun ostidan, og'iz o'rtasi kabi joylardan o'tadi va ular yuz qismida detallar joylashuvini aniqlaydi. Bu holda bosh shakli bo'yicha bir oz egilgan holda bo'ladi. Roparadan

chizilgan paytda to'g'ri chiziq vertikal holatda bo'lib, bosh qismini teng ikkiga bo'ladi.

Har bir yuz qismida o'zgacha ahamiyatga ega bo'lgan simmetrik o'zgarishlar bor: chunonchi birinchi ko'z ikkinchi ko'zga nisbatan balandda joylashishi, labning chuqurchasi egriroq, yuzning kengligi o'ng qismi chap qismiga nisbatan boshqa shaklda bo'lishi mumkin. O'zgarishlar uncha ahamiyatsiz bo'lgani sababli biz ularga hayotda e'tiborsiz qaraymiz, ammo yaxshi portret chizuvchilar ana shunday belgilardan foydalanib, portretida aniq xarakterlarni etkazib beradilar. Bunga Golbeyn, Rembrant, Repin, Serov kabi portret ustalarining ishlari fikrimizning yorqin misoli bo'la oladi. Rasm chizuvchilar shuni esda saqlamog'i kerakki, simmetrik o'q har bir yuzda har xil bo'lib, juft shakillarni teng ikki simmetrik bo'laklarga bo'ladi. Shundan keyingina biz shakldagi buzilgan simmetrik holatlarni qiyofada ko'rsatishimiz mumkin.

O'rtadan o'tuvchi o'q chiziq, kishi bosh qismini qanday holatda ekanligini aniqlaydi. Agar biz bu chiziqni o'rtadan emas, balki uchdan ikki qismidan o'tkazsak, u holda bosh qismi profilga yaqin yoki yon tomonga burilgan bo'ladi.




Ko'zning yuqori qismidan o'tkazilgan yordamchi chiziq rasmda yuz va miya kismlar munosabatini aniqlab, bu holat chizuvchining naturadagi nisbatlarini aniqlashga yordam beradi. Agar, bu chiziq ko'z sathidan ko'rishga nisbatan past yoki balanddan o'tsa, unda bu chiziq yoy shakliga aylanadi va bu yoy bosh shakli bo'yicha yotadi. Yoy chiziq ichkariga yoki tashqariga bo'rtib chiqadi.

Chizuvchi birinchi navbatda chizilishi kerak bo'lgan bosh kismining perspektiv holatni aniqlamog'i zarur va holanki qaysi ko'z yuqorida ko'rinsa, u


paytda va yordamchi perspektiv chiziqlar ko'z qorachig'ining yuqorisidan o'tishini aniqlaydi. Yuz qismining o'rtasidan o'tuvchi plyus (krestovina) shaklidagi chiziq, ko'z ustidan o'tuvchi chiziqni kesib o'tib, kelgusida bosh kismining to'g'ri chizilishini ta'minlaydi. Shuning uchun bu chiziqlar diqqat bilan chizilmog'i kerak, hatoga yo'l qo'yishdan holi bo'lmoqni talab qiladi. Har doim bu chiziqlar vertikalida va gorizontaliga tekshiriladi. Bu borada taniqli rassomlarning juda ko'p eskizlari saqlanib qolgan. Masalan, Rafael, Golbeyn kabi uyg'onish davri ustalari, taniqli rus rassomlari K.P.Bryulov, A.A.Ivanov va boshqalarning ishlarida bosh qismining burilishi mana shu plyus shaklidagi yordamchi chiziqlar bilan aniqlangan. Rasmda izlanish davomida yordamchi chiziqlarni o'tkazmoq kerak. Bu chiziqlar ko'z o'rtasidan burun va og'iz o'rtasidan o'tadi. Chiziqlar o'zaro parallel va ular ko'z qismga nisbattan parallel holda o'tadi. Bu holat to'g'ridan-to'g'ri burilishsiz o'tadi, boshqa hamma holatlarda bu chiziqlar aylana yoki katta tuxum shaklini hosil qiladi. quloqning joylashgan o'rni aniqlanib, gorizontal chiziq bo'yicha burun osti yoki burchaklari bo'yicha aniqlanadi (bu albatta bosh qismining qanday holatda turganligiga bog'liq bo'ladi). Burun va quloq orasidagi masofani aniqlamoq zarur bo'lsa, muskullar holatini hisobga olmoq kerak bo'ladi. Agar bosh kismini yon tomondan tasvirlamoqchi bo'lsangiz, tomoshabinda tasvir o'rtasidan arralangandek tuyulmay, balki yuz hajmi yaxlit shakldagi ko'rinishga ega bo'lsin. Bunga qanday erishiladiq Agar chizuvchi o'z oldiga qo'yilgan maqsadga to'g'ri erishsa, ya'ni qaysi holatda ko'z, quloq, burun, og'iz burchaklari kabi juft shakllarni rassom ko'rish nuqtasidan qanday joylashganini ko'rib bilsa, bundan tashqari tasvirlovchi shaklining yo'q joyida qalin chiziq o'tkazish ham noto'g'ri. qaysiki, bu chiziqning qalin yoki yupqaligi va tus darajasi ham joyda bir xil bo'lmaydi. Buning ustiga tomoshabin bilan har qanday shakl orasidagi masofani esda saqlamoq kerak. Bosh qism rasmini chizishda tasvirlanuvchi nisbatlarini esda tutmog'i kerak. Antik davr haykaltaroshlik namunalarida bu nisbatlar aniq saqlangan, chunki ular bosh qism nisbatlarini chuqur o'rganishgan. Ularning asarlarida ko'z o'rtasidan o'tuvchi chiziq bosh kismini teng ikkiga bo'lgan. Peshona, burun, yuzning pastki qismi, burun ostidan jag' qismigacha bir

xil balandlikda olingan. Antik (statuya) haykallarida ikki ko'z oralig'i bir ko'z uzunligiga teng. Og'iz qismi esa burun ostidan jag' ostiga bo'lgan masofaning uchdan biriga teng qilib olingan. Bu erda nisbatlarni bilmoq juda foydali, bu degani shu nisbat bo'yicha xatolarni tuzatish emas, balki bu narsadan bizgacha bo'lgan rassomlar akademik suratlar chizish maqsadida, ya'ni chizilayotgan kishi xarakteri bir-biridan aniq farq qilgani uchun foydalanishgan. Bosh tuzilishi shaklida nisbatlar belgilanib, yordamchi chiziqlar o'tkaziladi, soch yoki bosh



kiyimi o'lchab ko'rsatiladi, keyin esa nozik qatlamga ishlov beriladi, chunki bu qatlam katta shakldan iborat. P.P.Chistyakov buni o'z shogirdlariga “yo'nib olish”, D.N.Kardovskiy esa “shaklni yo'nish” deb aytishgan.

Chizuvchi katta shaklni belgilaydi, keyin esa detallarni belgilab chiqadi. Shuning uchun ham P.P.Chistyakovning oddiy va qulay chizish sistemasi haqidagi ko'rsatmalarini eslash foydalidir. Bu perspektiva tekisliklaridan iboratdir. Bosh suyagini chizar ekanmiz, gohida bu tekisliklar chegarasi bor, gohida bu tekisliklar to'r shaklida bosh qismiga o'ralgan kabi bosh qismini chizishda tasvir asosini tashkil etadi. Juda ham qiziqarli, perspektiva tekisliklarini kuzatar ekansiz, ular har



xil tekisliklarga ajralishi bilan xarakterli va o'lchamlari juda aniq, hattoki kichik detallarda ham bosh suyaklari kenglikda ham, chuqurlikda ham tabiiy holda bo'rtib chiqqan. Buni shunday tushunish mumkin, relef tushevkada emas, tasvirda asosiy chiziqlar yordamida perspektivaning detallari matematik hisob bilan topilgan yaxlit muvozanatni, bosh ansamblini tutib turadi.

Ayrim paytda hayratlanasiz, yolg'iz chiziqlar o'z o'rnini topib oldinga intilsa, bu sistema narsaga hajm berish usuli bo'yicha qo'l kelar ekan. To'g'ri topilgan perspektiva qurilishi ustki qatlamda hajmni chegaralaydi, shaklda soya-yorug'lik yochimini ta'minlaydi, bu esa ko'chirib chizish yoki tushevka kabi umumiy qulayliklardan iborat bo'ladi.

1-bosqich. qiyofani o'rganish, qog'ozga joylashtirish bosqichi.

2-bosqich. qiyofani joylashtirish va yuz qismlarini qurish bosqichi.

3-bosqich. qurish, joylashtirish va qiyofachining xarakterli tomonlarini o'xshatib chizish bosqichi.

4-bosqich. Tuslash bosqichi, soya-yorug' nisbatlarini topish va belgilash.

5-bosqich. Ishni umumiyashtirish va yakunlash bosqichi.

Mashg'ulotning jixozlanishi:

Erkak qiyofachi, ma'ruza matni, uslubiy fonddagi rasmlar, portret, qog'oz, qalam va boshqalar.

Zamonaviy videotexnika yordamida uslublarning tahlili, kompyuterdan foydalanib ishlanma ko'rsatish.

2.3. Inson qiyofasini akademik qalamtasvir usulda tasvirlashda metodik izchillikka rioya qilish.

Tasviriy san'atda inson qiyofasini tasvirlash qadimdan rassomlarni o'ziga jalb qilib kelgan. Tabiatda inson eng mukammal va serqirra ob'ekt bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun ham barcha badiiy o'quv dargohlarida ham inson qiyofasi, uning portretini tasvirlashga ko'plab vaqt ajratiladi. Tirik modelni (yalano'och model tasvirini) chizish qiyin vazifa, uni bajarish uchun rassomdan doimiy masho'ulotlar davomida egallangan malaka talab etiladi.

Tirik modeldan rasm chizishning qiyin tarafi shundaki, bunda model qimirlamasdan, bir xil holatda tura olmaydi, ya'ni chizish davomida u bir necha bor o'z holatini o'zgartiradi. Boshqa tomondan tirik modelda kuzatiladigan suyaklar va mushaklarning yaqqol ajralib turishi, ularning tuzilishi, nisbati, vazifasi va xarakterini oydinlashtirishga imkon yaratadi. Bundan tashqari model o'z holatini o'zgartirganida, rassom o'z tasavvuri va xotirasiga asoslanib chizishni davom ettirishi kerak. Bunday ish uslubi juda muhim bo'lib, qalamlar va eskizlar chizishda uning ahamiyati kattadir.

Tirik inson modelini (yalano'och inson qiyofasini) chizish masho'ulotlarini tashkil etish va undagi rasm chizish ketma-ketligi gipsdan ishlangan model tasvirini ishlash jarayoni bilan deyarli bir xil. Model taglik ustida tahminan 40 sm balandlikda erkin holatda, rassomga qarab, bir oyoo'iga tiralib – ushbu holatda chap oyoo'iga tiralib turishi kerak. Model holati Gudonning “Ekorshe”sini eslatadi. Bukilgan chap qo'l tana qismining orqa tarafida bo'lib, o'ng qo'l erkin holatda pastga osilib turibdi. Bu erda chap oyoq oo'irlik markazidir. O'ng oyoq esa chap oyoqqa nisbatan biroz oldinroqda joylashgan va erkin holatda turibdi.

Modelga yuqori-yon tarafdan kuchsiz yoruo'lik tushishi kerak. Anatomik tuzilish bo'yicha to'liq tasavvur hosil qilish uchun, modeldan uzoqroq masofada odam skeleti yoki Gudonning “Ekorshe”sini joylashtirish tavsiya etiladi. Bundan asosiy maqsad, oldingi vazifada olingan bilim va malakalarni tirik odam rasmini

chizishda taqqoslab nisbatlar hamda muskullar tizimini yanada aniqroq tasavvur etishdan iboratdir.

O'quvchilar bir-birlaridan eng kamida model bo'yiga bir barobar keladigan masofada, naturadan esa eng kamida qomatning uch barobari darajasidagi masofada joylashishlari kerak. Bunday masofa ularga modelni boshdan oyoo'igacha perspektiv o'zgarishlarda ko'rish imkonini beradi.

Rassom tasvirning joylashish o'rni va o'lchamlarini – rasm kompozistiyasini belgilaydi. Model pozasi va xarakatidan kelib chiqqan holda, modelning umumiy holati va model massasi qalam bilan engil chizib chiqiladi.

Turgan holatdagi model rasmini chizishni dastlab old tarafdin amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Chunki bunday holatda rasm chizish tamoyillarini ochib berish ancha oson kechadi. Oyo qosti va ular orasidagi masofa turgan modelning tayanch maydoni bo'lib hisoblanadi. Oo'irlik markazidan o'tuvchi vertikal chiziq tayanch maydonidan ham o'tganda model muvozanat holatida tik turgan deb hisoblanadi. Bundan shuni anglashimiz mumkinki, odam oyoqlari orasini kengroq ochsa, tayanch maydoni kattalashadi va mustahkam muvozanatga ega bo'ladi.

Bir oyoqqa tiralib turganda model holati oo'irlik markazi bo'ylab tushirilgan vertikal tayanch oyoqning tovon qismidan yoki uning yonidan o'tadi. Yalano'och odam tasviri chizilganda model modelsining holati ana shunday bo'lishi lozim.

Rasm chizishning dastlabki bosqichida xarakat holati va asosiy nisbatlarni ko'rsatgan holda, butun modelni umumiy ko'rinishini yordamchi chiziqlarda tasvirlash muhimdir. Tasviriy san'at qonun va qoidalaridan bizga ma'lumki, tabiatdagi barcha shakllar geometrik sirtlarga o'xshash shakllar tarkibiga asoslanadi shuning uchun ham ushbu holatga misol tariqasida Dyurer tomonidan geometrik shakllarga asoslanib ishlangan rasmni keltirishimiz mumkin.

Bu erda model xarakati yaqqol ko'zga tashlanadi. Elka kamari tosga nisbatan deyarli to'o'ri burchak bo'yicha burilgan, bosh orqaga qayrilgan. Yanada oydinlik kiritish maqsadida, A.Dyurer ko'krak qafasini geometrik shakl asosida, perspektiv o'zgarishlarni ko'rsatib, sxematik tarzda tasvirlagan. Oo'irlik markazidan podium yuzasidagi kesishish nuqtasigacha vertikal chiziq chiziladi. Ushbu nuqtaga asoslanib ikki tovonning o'zaro joylashuvini izlash kerak. Har bir oyoq joylashadigan joy tovon uzunligi darajasida belgilanadi. Katta oshiqdan (sonning tos bilan birlashgan qismi) pastga, oyoq joylashadigan joy markazi tomon tana tiralgan oyoqning umumiy yo'nalishini ko'rsatuvchi to'o'ri chiziq chiziladi; ikkinchi sonning katta oshio'idan erkin turgan oyoqning avval tizzagacha bo'lgan qismi, keyin esa tovon markazigacha bo'lgan qismi chiziq bilan belgilanadi.

Oo'irlik markazidan o'tuvchi va rasmda belgilangan boshning yuqori qismigacha davom etuvchi vertikal chiziqning umumiy uzunligi model balandligini tashkil etadi. Tors erkin holatda turganida oo'irlik markazidan tushirilgan vertikal yarem chuqurchasidan o'tadi. hosil bo'lgan umumiy vertikal chiziqqa tananing quyidagi alohida qismlari chegaralarini ko'rsatuvchi belgilar chiziladi: oyoq, ko'krak va bosh o'lchamini ko'rsatuvchi belgilar. Bu erda boshning o'rta chizio'i orientir qilib olinadi va bosh holati oval shakl bilan belgilanadi; shu usul bilan boshning burilish darajasi va xarakati aniqlanadi. Ishning mazkur bosqichida rasmning obrazli xarakteriga ta'sir qiluvchi modelning yuqori, o'rta, pastki qismi nisbatlariga to'xtalib, pedagog rassomlarga baland, o'rta va past bo'yli odamlarda boshning butun tana uzunligiga nisbati qanday bo'lishini, shuningdek erkak, ayol va yosh bola qomatlari nisbatlari o'rtasidagi farqlarni tushuntirib berishi kerak.

Bosh balandligi va yarem chuqurchasining joylashuvi butun model balandligiga nisbatan belgilangandan so'ng, engil chiziqlar bilan o'mrov suyaklari yo'nalishi chiziladi.

So'ngra modelning yarem chuqurchasidan to'sh suyagining hanjarsimon o'sio'i, undan kindik va rasmdagi asosiy o'zgarmas nuqtalardan biri bo'lgan tos

suyagining boshlano'ich qismi - yonbosh suyak tomon cho'zilgan shartli o'rta chiziq aniqlanadi.

Rasmga ko'krak so'ro'ichlaridan o'tuvchi gorizontal chiziq chiziladi; keyin tos suyaklarining qirralaridan chiziq o'tkaziladi va shu yo'l bilan tosning gorizontal chiziqqa nisbatan qiyalik darajasi aniqlanadi.

Ikkita oyoqqa tiralib turgan model holatida tos gorizontal holatda bo'ladi. Tananing barcha oo'irligini bir oyoqqa o'tkazilganida, tos oo'irlik tushmagan oyoq tomonga egiladi. Tosning yuqori qismi chizio'i yonbosh suyakning ko'rinib turgan qirralariga asoslanib belgilanadi.

Keyin ikki son suyagi boshchalari o'rtasidagi chiziq belgilanadi. Tana oo'irligini ko'rsatib turgan sonning tos bilan birlashgan boshchasi aniq ko'rinib turadi; ikkinchi oyoqning son boshchasining joylashish o'rni o'zgarganligi tufayli, uning o'rnida chuqurcha hosil bo'ladi. Ikki son boshchalari o'rtasidagi chiziqqa parallel ravishda, rasmda shtrixlab qo'yilgan tosning yuqori qismidan o'tuvchi, chiziq belgilanadi.

Tos chizio'iga parallel ravishda ikki oyoqning tizza qopqoqlaridan o'tuvchi chiziqchiziladi (son boshchasi va to'piq o'rtasida). Bunday usulda chizilgan belgilar vertikal chiziqbo'yicha model nisbatlarini aniqlashga yordam beradi.

Modelning asosiy qismlari kengligi - tosdan tovongacha va tosdan boshning yuqori chegarasigacha bo'lgan qismi shtrixlar yordamida oydinlashtiriladi. Ikki oyoqning yon tomonlari va tos, tors, elka, qo'l, bo'yin va bosh ham shtrixlar bilan chizib chiqiladi.

Ishning keyingi bosqichida o'chiro'ich bilan yordamchi chiziqlar va tasvirlangan model ichidagi barcha belgilangan yordamchi chiziqlar o'chiriladi va tasvirning o'lchami va chegaralari natura bilan yana bir marotaba solishtirib tekshiriladi. Buning uchun dastlab tasvir hajmini ko'rsatib beruvchi asosiy soya va tus munosabatlari rasmda aks ettiriladi va natijada nisbatlarni to'o'rilash va

konturlarga shtrix bilan aniqlik kiritish imkoni paydo bo'ladi. Bunda modelning tors va boshdan boshlab, oyoq va qo'lgacha bo'lgan qismlari ustida ish olib boriladi. Oyoq-qo'lning – elka, tirsak, tizzalarning bukilgan joylariga shtrixlar yordamida yoruo'-soya yordamida tus beriladi.

qo'l kaftlari va tovonlar birgalikda ishlanadi, model tasviri shtrixlar bilan ishlanadi va shakl hajmi yoruo'lik-soya munosabatlari asosida ko'rsatiladi.

O'quv mashqni bajarish davomida qalamni botirib chizish mumkin emas, chunki xatolarni tuzatishda rasm qorayib ketadi va tasvir yaxlitligi buziladi. Yalano'och model rasmini chizish bosqichlari va uning qismlarni umumlashtirish.



28 – 29-DARS: ”MEN YOQTIRGAN QAHRAMON” MAVZUSIDA RASM CHIZISH.

Material: Chizma qog'ozi, qora qalam, uchirg'ich, rang, akvarel, suv idishi paletta.

Darsning mazmuni:

1. Nazariy qism: ”Men yoqtirgan qahramon” mavzusida tushuncha berish.
2. Amaliy qism: ”Men yoqtirgan qahramon” mavzusida rasm chizish.

Darsning borishi: Darsga kirib, o'quvchilar davomatini aniqlayman va sinf jurnaliga belgilayman. O'quvchilarini nazorat qilaman. Dars xonasini tozaligiga e'tibor beraman.

Yangi mavzuni bayoni: O'quvchilar rasm chizish uchun avvalo uni bir necha bor o'qib chiqadilar. Bundan tashqari voqiya ro'y bergan mamlakatning tabiati, kishilar hayoti va tuzilish tarzi bilan tanishadilar. ”Oygul bilan Baxtiyor” dostonini (o'quvchilarga) mazmunini aytib berish. O'quvchilar bilan savol javob o'tkazish, darsni mustahkamlash.

Ma'lum tayyorgarlikdan so'ng asardagi biron bir ko'rinishga rasm ishlaydilar. Doston uchun yaratilgan rasmni o'quvchilarga tushuntirib, kimlar, nimalar, tasvirlanganligi, ranglari, shakllari, tuzilishi, asarning, kompozitsiyasini bo'lib olishlari talab etiladi. Chizilgan rasmdagi voqiya qayerda ro'y berayotganini bildirish uchun uning faniga ush yoki tabiat manzarasi tasvirlanadi. Ishlangan rasmlarni bo'yashdan oldin, o'qituvchiga ko'rsatishlari so'ng o'qituvchi bildirgan fikrlari asosida yana bir bor ko'zdan kechirib, xatolari bo'lsa tuzatishlari talab etiladi. Rasm tayyor bo'lgach rangga o'tiladi.

“Oygul bilan Baxtiyor” dostoni asosida chizilgan rasmning muvoffaqiyati qo'yidagi jihatlariga bog'liq.

Rasmda asosiy obrazni qanday ranglar bilan ajratib tasvirlash.

Rasmda ranglar perpektivasiga rioya qilish.

Ijobiy va salbiy obrazlarni tasvirlashda og'ir va yengil ranglardan foydalanishni bilib olish.

V-sinflar uchun tasviriyy san'at o'quv predmetidan “Rang tasvirda adabiy qahramon siymosini yaratish” mavzusida.

1-soatlik dars ishlanmasi.

Tashkiliy qism:

Salomlashish.

Sinf ozodaligini nazorat qilish.

Davomadni aniqlash.

O'quvchilarning darsga tayyorgaligini nazorat qilish.

Uy ishini baholash.

Uy ishi: Taklifnoma tayyorlash. Bosma. Yozma. Badiiy harflarni yozish.

O'quvchining o'tgan dars yuzasidan bajarib kelgan ishlarini baholash. Yaxshi bajargan va qonikarsiz bajargan ishlarini taxlil etish, yutuq va kamchiliklarini ko'zatib borish. O'tgan mavzuni mustahkamlash uchun savollar berish.

Taklif biletlari faoliyatning qaysi turiga kiradiq

Taklif biletlarining vazifasi va ahamiyati kanday ekanq

Taklif biletlarini tayyorlashda badiiy harflarning roli kanday ekanq

Taklifning badiiy elementlari nimalardan iboratq

O'quvchilarga berilgan savollardan qoniqish hosil qilingandan keyin yangi mavzu bayoniga kirishiladi.

Asosiy qism. Darsni tashkil etish.

Yangi mavzu: Ranglarda adabiy qahramon siymosini yaratish.

Darsning kurinishi: Amaliy ish. Ranglar asosida adabiy qahramon eskezini ishlash.

Darsning maqsadi: O'quvchilarning o'qigan badiiy asarlari,ko'rgan bilgan, eshitgan xalq og'zaki ijodi; ertak, dostonlari asosida ijobiy qahramon siymosini tasvirlashga o'rgatish. Ularning xarakteri, kayfiyatlarini ko'rsata bilishga o'rgatish. O'quvchilarning tasavvurdan, xotiradan rasm ishlash malakasini shakllantirish. Milliy urf-odatlar, an'nalar, qadriyatlar, ajdodlarning vataniga, yurtiga bo'lgan sadoqatini o'rgata bilish, bolalarning ongiga sindirish.

Darsning jihozlanishi:

Turli xil qahramonlar siymosi tasvirlangan rasmlar, o'quvchilar ishlaridan namunalar, rassomlar ishlagan asarlar reproduksiyalari, illyustratsiyalar, kitoblar.

Ish materiallari: Guash, akvaril, rangli qalam, muyqalamlar, qog'oz.

Darsning mazmuni:

Noan'anaviy tarzda ko'proq she'rlar, xikoyalarga yondashish. Ertak, doston, badiiy asarlardan namunalar, lavhalar orqali milliy qahramon siymosini, obrazini ochib berish.

Portret haqida tushuncha berish. qahramonning umumlashgan obrazini yaratishda portretning ahamiyati.

Kompazitsiya va rangtasvirda portret janrining rangtasvirdagi asosiy ifodaviy turi, vazifasi ekanligi, rangtasvir kompazitsiyasi, yorug'lik haqida o'quvchilarga tushuncha.

Portret janrining ko'rinishlari o'ziga xosligi:

psixologik portretlar.

shohona portretlar.

keskin xarakterdagi portretlar.

rasmiy portretlar.

Portretda tasvirlanayotgan kishini o'rganish, tushinishi uning xarakteri, xususiyatlarini aks ettirishga intilish, orazni ochib berish. Portret san'atiga oid keltirib o'tilgan jihatlarni o'quvchilar tomonidan nazariy aniqlash jarayonida o'z faoliyatlariga tadbiq etish. Inson qomati nisbatlari, umumiy tuzilishi va shakllari, harakatdagi holatlari, harakat va muvozanat, davrga mos kelishi, tasvirlanayotgan obe'ktga nisbatan munosabatini aks ettirish, hislari va xarakterini ko'ra bilish.

Darsning borishi.

Dars 2 - soatga mo'ljallangan bo'lganligi uchun 1 - soatda asosan portret janri haqida kengroq tushuncha berishga, o'quvchilarga o'zi o'qigan asarlari, she'rlari, hikoya, ertak, doston va boshka badiiy asarlari asosida o'zi yoktirgan kaxramonni tanlash va tanlangan kaxramonni eskezlar asosida tasvirlashdan boshlaydilar. Dars jarayonida ilg'ab olish kiyin bo'lgan o'quvchilarga turtki berish uchun o'kituvchi tomonidan kaxramonlar misoli tarikasida keltirib o'tiladi.

Masalan: Xalk dostonlari, milliy karamolar, "Afrosiyob", "Tumaris", "Shirok", "Spitamen", "Alpomish" va boshqalar.

Ertak kahramonlari: "Kenja botir", "Oqil va dono nidosi", xalqni dushman qo'lidan ozod qilgan bohodir va shu kabilarining ijobiy xarkterlari ochib beriladi. She'rlar va manologlardan parcha aytiladi. Dars maboynida ko'rgazmali

materallardan foydalaniladi, muntazam ravishda o'quvchilar ishari kuzatib boriladi. Darsni mustahkamlash uchun savollar beriladi. o'qituvchi qoniqish ololmagan javoblarga yordamlashish orqali darsni mustahkamlab boriladi.

Darsni mustahkamlash uchun savollar:

Portret janri tasviriy san'atning qaysi turida ko'proq uchraydiq

Javob: Rang tasvir, grafika, haykaltaroshlikda.

Portretida asosan nimalar tasvirlandi

Javob: Portretida insonlar tasvirlanadi.

Portret janrining turlari necha xil

Javob: Rasmiy portret, xarakterli portret, shoxona portret, avtoportret, pseixologik portret.

Rang tasvirda portretning ifodaviy vositasi nimalardan iborat

Javob: Rang tasvirda ifodaviy vositasi kompozitsiya va rang.

O'tilgan mavzuni mustahkamlab olgandan keyin o'quvchilarga uy ishi beriladi.

Uy ishi: Rassomlar ishlagan qahramonlarning rasmlarini izlab topish. Portret janrini mustahkamlab kelish.

Darsda o'quvchilar bilishlari lozim bo'lgan bilim va malakalar.

Portret janri va turlarini bilish.

Berilgan topshiriqning mazmuniga mos materiallar, texnika va vositalarni bilish.

Odam gavdasining turgan va harakatdagi holati, tanasining turli bo'laklarini to'g'ri tasvirlay olish.

Odam yuz tuzilishidagi xarakterlarini to'g'ri ko'rsata bilish.

Berilgan topshiriqga mos ravishda kompazitsiyaning rang moslik yechimini to'g'ri hal eta olish.

Yaxlit kopazitsiya, obraz yaratishda ranglarning mutonosibligini saqlay bilish.

Portretchi rassomlarning 5-6 nafarini nomlarini va asarlarini bilish.

Xulosa

O'zbekiston musavvirlari ijodida portret janrining aloxida o'rni mavjud bo'lib, rassomlar o'z ijodlari jarayonida portretning psixologik, bayram, guruxli va avtoportretlar yaratishdi.

O'zbekistonning buyuk rassomlaridan biri bo'lmish P.P.Benkov o'zbek rangtasvirining asoschisi hisoblanib, u 1879 yilda qozonda tug'ilgan bo'lsada, taqdir taqozosi bilan O'zbekistonga kelib qoladi, Samarqandda yashaydi va shu erda 1949 yilda vafot etadi.

U qozon shahridagi rassomlik bilim yurtida dars berib, ijodiy ishlarni davom ettirgan. qozon opera teatriga dekorastiyalar ishlagan, ko'plab portret va manzaralar yaratgan. U o'shanda odamlar qiyofasini chizarkan, mo'yqalami engil, ravon bo'layotganligini his qilgan. Oddiy odamlarning soddaligi, ishonuvchanligi rassomni maftun etgan."Keksa tatar", "Tatar ishchisi", "Tatar qizi" singari qator asarlar yaratgan.Uning bu davrda ishlagan asarlari orasida, ayniqsa, "Lo'li qiz portreti" diqqatni jalb etadi.

Oddiy odamlarning soddaligi, ishonuvchanligi rassomni maftun etgan."Keksa tatar", "Tatar ishchisi", "Tatar qizi" singari qator asarlar yaratgan.Uning bu davrda ishlagan asarlari orasida, ayniqsa, "Lo'li qiz portreti" diqqatni jalb etadi.

O'zbekistonga kelganida, bu erdagi insoniy qadriyatlar, xalqning bag'rikengligi, bu go'zal o'lka tabiatining ajoyibligi rassomni maftun qilib qo'ydi. Samarqandda yashab qoldi. Buxoro, Xiva shaharlariga tez-tez ijodiy safar qildi.

Rassomning Buxoroga qilgan safari ancha samarali bo'lgan edi.Bu erda naturadan ishlash usuli plener rangtasvirining o'ziga xos xususiyatlarini taqozo etdi.Uni mukammal o'zlashtirgani bois , P.P.Benkov plener bo'yicha mohir rassom bo'lib etishdi va tom ma'noda O'zbekistonda plener rangtasvir maktabini yaratdi. Uning "Labihovuz","Buxoro amaldori", "Bo'yoqchi yahudiy portreti", "Tojik portreti", "Kuz.Hovuz bo'yida" singari durdona asarlari ochiq havoda – plenerda ishlangan.

30 – yillarda P.P.Benkov portretlarida yangicha timsollarni gavdalantirdi. Masalan, “Y.Oxunboboev portreti” va boshqalar. Ularda birinchi galda kelajakka ishonch va shu zamon odamlariga mehr hissi boʻrtib turadi.

1930 yilda P.P.Benkov bir oz muddat Xivada yashaydi. Bu sharqona shaharning koʻchalari, bozorlari, choyxonalari, meva va sabzavotlar rastalarini kuzatdi. Xivada ishlagan asarlarida rassom oʻzini mohir kolorist sifatidagi mahoratini namoyon etdi. U asarlarida Xivaga xos tabiiy ranglar: sargʻimtir, toʻq sariq, jigarrangning betakror qirralari, quyosh nurlaridan sargʻaygan manzaralarni aks ettirdi. Ularda rassomning avvalgi asarlaridagi kumushsimon yorugʻlik tebranishlari emas, balki oftobda toblangan ranglar namoyondir. Rassom Xivada ishlagan asarlarida tipajlarning oʻziga xos xususiyatlari, yashayotgan muhiti, ularning kiyim-kechak va liboslaridagi etnografik unsurlar, kishilarning oʻtirib-turishlarini aniq gavdalantiradi. “Xivalik ip yigiruvchi ayollar”, “Xivalik ayol portreti”, “Xivalik qiz” kabi asarlari buning isbotidir. “Xivalik qiz”(1930y) asarini P.P.Benkov ijodining yuksak choʻqqilaridan biri deyish mumkin. Moskvadagi Tretyakov galereyasida saqlanadigan bu asar naturadan chizilgan. Unda hayot lavhasi yuksak badiiy mahorat bilan aks ettirilgan. Bir qaraganda rassom bu asarida milliy, maishiy turmushini aks ettirish bilan chegaralangandek tuyuladi.

P.P.Benkov yirik portret ustasi. U anʼanaviy Evropa rassomligi maktabida tarbiya topgan. Ammo rassom ijodida qiziq bir jihat seziladi. Rassomning “Jangchiga sovgʻa” asarida soʻrida oʻtirgan ikki oʻzbek qizi tasvirlangan. Ulardan biri kashta tikmoqda. Ikkinchisi esa tabiatdan zavqlangancha bir nuqtaga tikilib qolgan. P.P.Benkovning ushbu portreti bilan Kamoliddin Bexzodning “Shayboniyxon” portreti oʻrtasida oʻxshashlik seziladi. Bu portretlarning chizilishi va ranglarni qoʻllashda seziladi. Maʼlumki Evropa rassomlik maktabiga mansub rassomlar oʻz asarlarida oq bilan qora yoki qizil bilan qora boʻyoqni hech qachon yonma-yon ishlatishmaydi. “Jangchiga sovgʻa” asarida esa qizlarning kiyimi qora-qizil, qora-oq ranglarda ishlangan. “Shayboniyxon”da ham tasvirlanuvchining kiyimlari oq-qizil, qora-qizil rangda ifodalangan. Pavel Petrovich Benkov Oʻrta Osiyoga kelgach, qadimiy qoʻlyozmalarga ziynat sifatida ishlangan miniatyuralar bilan tanishgan, ulardan oʻrgangan.

Shuningdek, bu ulug' rassom Franstiyada Matiss, Sezann Van Gog kabi mashhur san'atkorlarning Bexzod an'alaridan ilhomlanib yaratgan ijod namunalarini o'z ko'zi bilan ko'rgan.

Umuman, P.Benkov o'zbek voqeligini teran his qilib uni keng ko'lamda, tipik tarzda, tabiatdagi ranglardan unumli foydalangan holda aks ettirgan.

Rangtasvirchi rassom, pedagog, O'zbekiston Badiiy Akademiyasining akademigi, O'zbekiston xalq rassomi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi Malik Nabiev 1916 yilda Toshkent shaxrida tavallud topgan va 2008 yilda vafot etgan. Malik Nabiev tasviriy san'atning ilk saboqlarini rassom Baxrom Hamdamiydan o'rgandi. Rassom urushning og'ir yillarida qishloqlarni kezib, portretlar ishladi, fashistlarni qoralovchi plakatlar chizib, chaqiriqlar, shiorlar yozib, front ortidagi mehnatkashlarni sharaflash bilan g'alabani yaqinlashtirdi.

Rassom o'z faoliyati davomida hamisha tarixiy shaxslar portretlarini yaratishga, tarixiy voqealarni tasvirlashga intilar edi. Tarixiy shaxslar timsolini yaratish naqadar mushkulligiga qaramasdan, u o'zining tinimsiz mehnati tufayli buyuk siymolar qiyofasini yuksak badiiy saviyada yarata oldi. Bu benazir asarlar ichida Amir Temur, Beruniy, Bobur, Ibn Sino, Jomiy va Navoiy, Ar Roziy, Al Xorazmiy kabi bir qancha yirik olim, shoir, davlat arboblarning portretlari aloxida o'rin tutadi.

Mazkur bebaho asarlardan biri 1962 yilda yaratilgan Zaxiriddin Muhammad Bobur portretidir. Mazkur asarni yaratish uchun rassom ko'p yillar davomida ijodiy izlanishlar olib bordi. U Bobur yashagan Andijon, Samarqand shaxarlarida, shuningdek, Afg'oniston, Hindiston kabi mamlakatlarni kezib chiqdi. Bobur haqida yaratilgan mo''jaz rangtasvir asarlarini har tomonlama batafsil o'rgandi. Nihoyat, rassomning ko'p yillik tinimsiz mehnati natijasida yaratilgan Bobur portreti keng jamoatchilik tomonidan olqishlarga sazovor bo'ldi.

Beruniyning tavalludiga 1000 yil to'lishi munosabati bilan 1973 yilda Beruniyning eng yaxshi portreti uchun e'lon qilingan tanlovda Malik Nabievning ishi birinchi mukofotni oldi. Bu portret YuNESKOning "Kurer" jurnali muqovasida va xorijiy mamlakatlarning ko'pgina jurnal va gazetalarida ham chop etildi. Portretda ilm muammolarini echishga chog'langan, vazmin, nigoxi olisni ko'zlayotgan alloma

xarakteri ifodalangan. Rassom ilm sirlarini echish uchun butun vujudi bilan kirishgan insonparvar olim Abu Rayxon Beruniyning butun salobatini tasvirda gavdalandiradi.

M.Nabiev ijodida 1994 yilda yaratilgan “Amir Temur” portreti asosiy o’rinni egallaydi. Bu asarni yaratish istagi ijodkorda 1941 yilda, Sog’ibqironning qabri ochilib uning bosh suyagi olingan hamda bu asosda rus haykaltaroshi M.Gerasimov tomonidan Amir Temurning haykalini ishlashga kirishilgan paytdan boshlangan. Rassom Sohibqironning bosh suyagini tarix muzeyida o’z ko’zi bilan ko’rib, uning portretini ishlashga kirishadi.

Amir Temurdek buyuk bir shaxsning portretini ishlash qanchalik mas’uliyatli va murakkab ekanligini his qilgan rassom bu ulug’ va sharaflı ishga ellik yildan ortiq vaqt sarfladi. Bu davrda u Hindiston, Eron, Turkiya, Angliya, Fransiya, Ispaniya kabi mamlakatlarning muzeylari va kutubxonalarida saqlanayotgan va bevosita Amir Temur hayoti va faoliyati bilan bog’liq bo’lgan mo’jizalar rangtasvir asarlarini, u haqda yaratilgan ko’plab adabiyotlarni miridan sirigacha puxta o’rgandi. Oxir oqibatda, davlat arbobi, harbiy qo’mondon siymosini realistik tarzda zo’r mahorat bilan yaratishga muvaffaq bo’ldi. 1994 yilda eng yaxshi yaratilgan Amir Temur siymosi uchun e’lon qilingan tanlovda M.Nabievning mazkur portreti bosh mukofotga sazovor bo’ldi.

San’at ixlosmandlari e’tiborini o’ziga jalb qilgan Amir Temur portretida Sohibqiron sarkarda qiyofasida gavdalandirilgan. Boshiga oltin toj kiygan Temurning nigoxi bir nuqtaga qaratilgan. Va jiddiy xayol og’ushida ekanligi chap qovog’ini bir oz o’tganligini ko’rsatsa, uning tetik va baquvvatligini saqlanganligi yaqqol sezilib turibdi.

Ayniqsa, bu holat yuzda ko’zga tashlanayotgan pishqlik, chayirlikni tasvirlanishida yanada aniqroq ko’rinadi. Jiddiy fikr va xayol bilan bandligi esa sohibqironni yanada salobatli qilib ko’rsatadi. Elkador, qo’llari esa bamaylixtir qilichga tayangan holda tasvirlangan. Portretda qo’l barmoqlari shunday xarakterli tasvirlanganki, bu sohibqiron Temurning mashaqqatli jangu jadallardan mardonavor o’tganini yana bir bor tasdiqlab turibdi. Sharqona bezatilgan shox saroyining bir bo’lagi, derazadan Samarqand shaxrining manzarasi ko’rinadi. Devordagi fonda

naqshin bezaklar, sohibqiron o'tirgan saltanat kursisining badiiy boyligi, shuningdek Amir Temur egnidagi liboslarning o'ziga xos qimmatbaxo ko'rinishiga ega bo'lishi tomoshabinga zavq ulashadi.

Malik Nabiev buyuk inson Amir Temur obrazini tasvirlash borasida katta muvaffaqiyatli qo'lga kiritdi. Temurni ilm, san'at ahillariga homiylik qilgan ma'rifat homiysi ekanini ham ifodalay oldi. Xullas, Malik Nabiev sharqona xarakterga ega bo'lgan Amir Temurni uzoq va mashaqqatli jangu jadallardan so'nggi holatdagi obrazini tasvirlashga erishgan.

Musavvir Chingiz Axmarovning nomi ham O'zbekiston tasviriy san'atida haqli ravishda faxrli o'rinlardan birini egallaydi. Bu beqiyos ulkan mo'yqalam soxibining ijodi o'zbek tasviriy san'atining ajralmas bir qismi sifatida keng xalq ommasining e'tirofiga sazovor bo'ldi. Bo'lajak rassom 1912 yilda Rossiyaning Troistk shaxrida tug'ilgan. 1995 yilda Toshkent shaxrida vafot etgan. Chingiz Axmarov o'zbek xalqining tarixi, uning an'anaviy san'at merosiga qiziqadi. U juda ko'plab o'zbek adiblarining, jumladan buyuk bobomiz Alisher Navoiy asarlarini o'rganar ekan o'zbek milliy adabiyotiga, she'riyatiga maxliyo bo'ladi. Go'zallik sirlarini qidirish musavvirni Navoiy ijodiga yanada chuqurroq kirishga jalb qiladi. "Xamsa"dagi voqealar nafisligini sezgan Chingiz Axmarov uni bo'yoqlarda jonlantirishga kirishar ekan, har bir asar ustida qayta qayta mehnat qilib to'laqonli va go'zal siymolarni yaratishga muyassar bo'ldi.

1945 yilda yaratilgan "Shirin portreti"da ana shunday betakrorlikni ko'ramiz. Shirinning sharqona chehrasi, liboslari hatto hatti harakatidagi holatlar bir biri bilan uyg'unlashib o'ta maxoratli tasvirlangan. Bu portretda boshlari bir oz egilgan, nozik qarashlar bilan eshik yonida turgan Shirinning to'liq gavdasi aks ettirilgan. Bunday asarlarda Navoiy bobomiz orzu qilgan o'zbek ayollariga xos go'zallik, iffatlilik va o'ta nazokatli xususiyatlarni Chingiz Axmarov bo'yoqlar orqali jonli tasvirlashga muvaffaq bo'ladilar. Musavvirning mo'yqalamiga xos sharqona obrazlar va qiyofalar takrorlanmas tarzda yuzaga kela boshlaydi.

"Mukarrama Turg'unboeva" portreti, "Mushoira", Alisher Navoiyning lirik asarlari mazmuniga hamohang rasmlar turkumi, "Shoira Zulfiya" portreti, ayniqsa,

muvaffaqiyatli chiqqan. Ayniqsa, Alisher Navoiy nomli o'zbek davlat akademik katta teatrini bezatilishida rassom o'z imkoniyatlarini namoyish eta bilgan. Bu erda aks ettirilgan ramziy ma'nodagi tasvirlar vositasida o'ziga xos san'at sirlari ochib beriladi. Kezi kelganda quyidagi ramziy tasvirlarni ta'kidlab o'tish zarur.

O'zbekiston xalq rassomi, O'zbekiston badiiy akademiyasining faxriy a'zosi, Hamza nomidagi O'zbekiston davlat mukofoti laureati Abdulhaq Abdullaev 1918 yilning 30 dekabrda qozoqistonning Turkiston shaxrida tug'ilgan. Rangtasvirchi rassom A.Abdullaev asosan tasviriy san'atning portret janrida ijod qilgan. A.Abdullaevning butun hayoti va ijodi inson qiyofasi, ichki dunyosi, insonning cheksiz imkoniyatlari sir asrorlarini tushunib etish, ularni san'atkorona tasvirlashga bag'ishlangan, deyish mumkin. Bu borada ayniqsa, mashxur o'zbek aktyori Abror Hidoyatovning Otello rolidagi portreti (1946) e'tiborga molik.

Ma'lumki, o'z davrida Abror Hidoyatov Otello roli orqali jaxonga tanildi. Ana shu obrazni astoydil kuzatgan, har jixatdan o'rgangan rassom uni o'ziga xos tarzda tasvirlashga muvaffaq bo'ladi. O'ta ta'sirchan va to'laqonli bu portret rassomning mahorat cho'qqisidan dalolat beradi. Obrazda o'tkir ko'zlar, qandaydir kuch va ichki bir harakatlar bilan tasvirlangan bu portret bir qarashdayoq tomoshabin e'tiborini o'ziga rom etishiga shak shubha yo'q. Asarda umumiy qizg'ish rang gammasi portretdagi obrazning ichki g'oyasini ochib berishga xizmat qiladi.

Rassom suvratda A.Hidoyatov timsolidagi Otelloning xarakteri va qiyofasini, hayotning shafqatsiz siru asrorlariga qarshi qahr g'azabini ochishga harakat qilgan. Uni atyorning bir oz orqaga tashlangan holatidan, boshini mag'rur tutishi va keskin burilishi, qat'iy qarashlari orqali ifodalashga intilgan. Aktyor qiyofasida o'ziga ishonch, iroda, qaynoq ehtiros, shiddat va vajoxat yaqqol sezilib turadi. Obrazdagi bu xolatlarning tomoshabinga ta'sirini kuchaytirish maqsadida rassom aktyor qomatini suvrat tekisligining chegaralariga taqalgan holda tasvirlangan va kompozistiyaning yaxlitligini ta'minlangan. Suvratda ishlatilgan to'qqizil, jigarrang, och sarg'ish kabi iliq ranglar qahramon Otelloning ruhiy holatini ochib berishga xizmat qilgan.

Umuman Abdulhaq Abdullaev portret yaratishda obrazning ichki qiyofasini ko'rsata olishi bilan aloxida ajralib turadi. 1949 yilda ishlangan yozuvchi Oybek

portretini kuzatar ekanmiz, insonning psixologik olamining tasvirlanishiga yana bir bor tan beramiz. Rassom inson qiyofasini tasvirlashga qayta qayta murojaat qilar ekan, har bir suratda o'zgacha bir olam, o'zgacha bir yangiliklarni kashf etadi. U yaratgan asarlar qanday qilib bo'lmasin tomoshabin qalbini hayajonga soladi. Abdulhaq Abdullaev ko'plab zamondoshlari va bir qancha avtoportretlarni yaratish borasida ham bunday muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritgan.

Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy obrazi ustida bu rassomchalik ko'p mehnat qilgan san'at ustasini tasviriyl san'at vakillari ichida topish amri maxol bo'lsa kerak. "Bir necha nusxada chizilgan Alisher Navoiy portreti o'zining mo'tadilligi, sofligi va ruhiy dunyosining boyligi bilan ajralib turadi. Bunda rassomga xos romantik tuyg'u bilan tasvirlanmish shaxsning ruhiy dunyosini chuqur tushunish qobiliyati bir biri bilan uyg'unlashib ketadi", deb ta'riflaydilar Tilab Maxmudov.

Ijodkorning o'tgan asrning 50 - yillari ikkinchi yarmi va 60 yillardagi Hindiston, Afrika, Indoneziya bo'ylab qilgan sayoxatlari unga bir dunyo ijodiy ko'tarinkilik baxsh etdi. Natijada u mazkur taassurotlar va u erlarda ishlagan etyudlari asosida "Indira Gandi surati"(1957), "Hind ayoli" (1957), "Milliy libos kiygan sinx" (1957), "Muallifning Indoneziya bosh kiyimida ishlagan avtoportreti"(1964), "Franstuz tili o'qituvchisi"(1966), "Senegallik yigit"(1966) kabi portret asarlarni yaratdi. Rassomning bu mamlakatlarda ishlagan etyudlari turli xalqlarga mansub kishilarning milliy xarakteri va mavjud koloritni chuqurroq tasavvur etishga, begona va olis tuyulgan turmush tarziga teran nazar tashlashga imkon berdi. Natijada uning inson ichki olami, o'ziga xos jixatlari haqidagi tasavvurlari o'zgardi. Endi uning asarlarida iliq va to'q ranglardan ko'proq ustunlik qila bordi. Bu sifatlar ijodkorning "Sobir Abdulla portreti", "Buvi bilan nabira"(1960), "Malika" nomli portret ishlarida yaqqol seziladi.

Shuningdek, u kishilar portretini ishlashda suvrat fonida manzaradan keng foydalanishi ko'zga tashlanadi. Masalan, buni rassom tomonidan 1973 yilda yaratilgan "Er farzandlari" asarida kuzatish mumkin. Ushbu asarda rassom tabiat bilan insonning o'zaro chambarchas bog'liqligini yuksak badiiy talqinda ifoda etgan. Bunday holni ijodkorning mehnat qahramonlari paxtakorlar Nazarali Niyozov, Mamatisoq ota

Toshmatov, sohibkor Rizamat ota Musamammedovlarga bag'ishlangan ishlarida ham ko'rish mumkin.

Mazkur guruxli portretida rassomning asosiy e'tibori qahramonlarning kamtarinligi Vatan ravnaqi yo'lidagi mehnat shijoati va g'ayratiga qaratilgan. Rassom o'z qahramonlarini tog' fonida tasvirlaydi. Suvratda ifodalangan musaffo osmon, viqorli tog'lar, baxorgi go'zal tabiat, oyoq ostidagi yam-yashil maysalar ham qahramonlar siyratini ochib berishga xizmat qilgan. Suvratda rassom mehnatkash insonning ulug'ligini ular siymosini tog'lardan ham baland qilib tasvirlash orqali ko'rsata olgan.

Rassom ijodining so'nggi yillarida bir necha variantda Alisher Navoiy portretlarini ishladi (1970 - 1980). Bu buyuk shoir shaxsini badiiy talqin etish borasida rassom o'n yildan ko'proq shug'ullandi. Navoiy siymosini garchi, o'z davrida Mahmud Muzahhib, V.Kaydalov, q.Basharov va boshqa bir qator rassomlar takror va takror yaratgan bo'lsalarda, A.Abdullaev ham bu sharaflı ishga o'z ulushini qo'shishni niyat qildi.

Natijada u ham shoir portretining bir necha talqinlarini yaratdi. A.Abdullaev o'z ishlarida Navoiyning davlat arbobi, shoir, mutafakkir, tarixchi kabi ko'p qirralı shaxs ekanligiga aloxida e'tibor qaratdi, shu bois uning ijodiy ishlari o'ziga xoslik kasb etdi.

A.Abdullaevning sermahsul ijodida ayollar mavzusi aloxida o'rin egallaydi. U yaratgan "Nina portreti", "Rassom onasining portreti", "Matyoqubova portreti", "Indira Gandi portreti", "Hind ayoli portreti", "Farida portreti", "Shaxlo", "Buvi va nevara", "Yozuvchi Hamid G'ulom onasining portreti", "Lutfixonim Sarimsoqova portreti" kabi o'nlab asarlar fikrimiz dalilidir. Mazkur portretlarda ayollarga xos maftunkorlik, latofat, onalik mexri, ezgulik kabi xislatlar, turli tasviriy vositalar yordamida moxirona aks ettirilgan.

A.Abdullaev ijodidagi ko'tarinkilik va mahorat ayniqsa uning 1964 yilda yaratilgan "Indoneziya bosh kiyimida ishlangan avtoportret", 1977 yilda yaratilgan "Avtoportret" nomli suvratlarida yorqin namoyon bo'ladi. Bu avtoportretlardan rassomning yildan yilga badiiy maxorati sayqal topib, asarning tomoshabinga ta'sirini

kuchaytiruvchi ifodalilik vositalaridan keng qo'llanishga erishganligini ko'rish mumkin.

Betakror san'at soxibi A.Abdullaev haqida, uning asarlari to'g'risida juda ko'p so'zlash mumkin. Ammo uning ijodida eng muhim o'rinni egallagan bir qator mashxur asarlari haqida to'xtalmasdan bo'lmaydi. Ular Alisher Navoiy, Furqat, Abror Hidoyatov, Mannon Uyg'ur, Nazarali Niyozov, Mamatisoq ota Toshmatov, Oybek, Hamza, Abdulla qahhor, Turob To'la, Habibiy, Ibrohim Rahim, Chingiz Axmarov, Hamid Olimjon, Said Ahmad, Shayxzoda, I.Sulton, Yolqin To'raqulov, qori Niyoziy, I.Hamroboev, Mirtemir, Shuxrat, O.Sodiqov, Usto Shirin Murodov, Uyg'un, Sobir Abdulla, Shukrullo, I.Mo'minov, L.Sarimsoqova, M.Boboev, Habibiy, H.G'ulom, K.Yashin kabi respublikamizning mashxur fan va adabiyot, san'at arboblari, qishloq xo'jaligida fidoyilik qilib shuxrat qozongan arboblari, allomalarining siymosidir.

Shuningdek u ko'plab, o'z yaqinlari portretlarini ham yaratdi. "Ona suvrati", "Xumsonlik ayol", "Malika", "Mirza suvrati", "Lola", "Baxri", "Suyar", "Jiyanim Shaxlo", "Amakim suvrati", "Tilab portreti" kabi asarlari shular jumlasidandir.

Hozirgi zamon O'zbekiston tasviriy san'atining portret janrida barakali ijod qilayotgan o'zbek rassomlaridan yana biri Laylo Salimjonovadir. Laylo Abubakirovna Salimjonova 1936 yilda Samarqand viloyatining Urgut shaxrida tug'ilgan.

Laylo Salimjonovadir o'tgan asrning 60-70 yillaridagi ko'rgazmalarda asosan portret janridagi asarlari bilan qatnashar edi. Uning bu janrdagi "Jamila Jumaeva", "Baxri G'ulomova", "Zulfiya" kabi asarlari diqqatga sazovordir. Keyinchalik u "Xalima Xudoyberdieva", "Onalik", "Yashnarxon portreti", "Singlim portreti", "Ma'mura Boboeva", "To'quvchi qizlar", "Farida portreti", "Arxitektor M.Xudoynazarova", "Dilorom qambarova", "Zamira Hidoyatova", "Hamro Rahimova" kabi yana o'nlab betakror portretlarini yaratdi. Birgina "Hamro Rahimova" asarining yaratilish tarixiga nazar tashlasak, qiziq hikoyaning guvoxi bo'lamiz. Rassom asar yaratishga material to'plash maqsadida xalq o'yinchoqlari ustasi Hamro Rahimovaning uylariga borib, ularning xonadonlarida bir necha kun mehmon bo'ladi. L.Salimjonovani betakror o'yinchoqlarning yaratilish bosqichlari nixoyatda qiziqtirib qoladi. Bu jarayonni o'z ko'zi bilan ko'rgan rassom shu ondayoq yaratilajak asarining

kompozistiya echimini topadi. Laylo Salimjonova ustaning mehnat jarayonidan xomaki eskizlar ishlar ekan, ba’zida uni savollarga ko’mib tashlar edi. Shu tariqa “Hamro Rahimova” suvrati yaratilgan. qiziq tomoni shundaki, bu asardagi turli yoshdagi bolakaylar tasviri umuman qahramonga notanish va rassom tomonidan kiritilgan.

O’zbekiston xalq rassomi Baxodir Jalolov 1948 yilda Toshkentda tavallud topgan. Yoshlik yillarida portret san’atining ustasi Abdulhaq Abdullaevdan ta’lim oladi. Rassom ijodiy faoliyatining dastlabki namunalari milliy his tuyg’ular turli xil ranglarda o’z ifodasini topadi. B.Jalolov tasviriy san’at borasidagi taxsilni davom ettirib keyinchalik Chingiz Axmarov, Ro’zi Choriev, Milnikov, Korolevlardan tasviriy san’at sirlarini o’rgandi. Shu sababli u yaratgan portretlarda maxoratlik ko’zga aniq tashlanib turadi.

Baxodir Jalolov portret san’atida ko’p yutuqlarga erishdi. Uning to’laqonli asarlarida o’zbek xalqining sevimli farzandlari siymosi o’z ifodasini topgan. Bu o’rinda ayniqsa, akademik rassom O’rol Tansiqboev, buyuk olim, akademik Voxid Zoxidov, san’atning mashxur darg’alari Komil Yormatov, Malik qayumov, Muxiddin Raximov, Hamro Raximova, Akrom Toshkanboev, Damir Ro’ziboev kabi ulug’lar siymosi so’zimizga misoldir. Rassom inson shaxsini doimo o’rganishga, uni har tomonlama his qilishga intiladi. Darhaqiqat, yuqorida ko’rganimizdek baxodir Jalolov ijodiy faoliyatining asosiy ko’lami insonlar obraziga, ya’ni portretlar yaratishga qaratilgan. Tasviriy san’atda u kishi o’z rangin olamini yangidan yangi jilolar bilan tobora boyitib kelmoqda. Uning muvaffaqiyatli chiqqan ilk asarlari qatoriga “Masxaraboz Akrom Yusupov”, “Xalq ustasi kulol Hamro Rahimova” kabi ishlarni kiritish mumkin.

O’zbekiston Xalq rassomi, rangtasvir san’atida ulkan muvaffaqiyatlarni qo’lga kiritgan iste’dod egasi Javlon Umarbekov 1946 yilda Toshkent shaxrida tavallud topgan. J. Umarbekov “Husayn Boyqaro va Alisher Navoiyning yoshligi” ga bag’ishlangan, 1968 yilda yaratilgan asarida ikki do’stning sharqona obrazini tasvirlaydi. Bu borada o’zining katta maxorat egasi, shuningdek, rangtasvir san’atining chinakam ustasi ekanini namoyon qila olgan.

Javlon Umarbekov asarlarida tarixiy shaxslar qiyofasi to'laonli kompozistiyalar qamrovida gavdalanadi. Bu o'rinda ayniqsa, Al Xorazmiy, Abu Rayxon Beruniy, Amir Temur kabi tarixiy shaxslar obrazlarining to'laonli gavdalanishi diqqatga sazovordir.

Xalqimiz tasviriy san'at merosi an'alarini o'zlashtirib, zamona ruhiyatiga, xarakteriga mos ravishda davom ettira olish har qanday musavvirga ham nasib etavermaydi. Mashxur musavvir Chingiz Axmarovning sevimli shogirdlaridan biri Temur Sa'dullaev bu borada ulkan ijodiy muvaffaqiyatlarga erisha olgan rassomlar sirasiga kiradi. Temur Sa'dullaev 1948 yil 20 aprelda Jizzax viloyatining G'allaorol tumanidagi qangli qishlog'ida Sa'dullaxon degan kishining oilasida tavallud topdi.

Alisher Navoiy asarlariga bo'lgan qiziqish muzeyga ishga kelganidan so'ng rassomda yanada kuchaydi. Natijada asta sekin musavvirning rangbarang mushoxadaga undaydigan portretlari yuzaga kela boshladi. Buning yaqqol dalili sifatida "Alisher Navoiy va Kamoliddin Bexzod" nomli asari e'tiborga molikdir. 70 - yillarda ko'pchilik tomoshabinlar e'tiborini qozongan "qiz portreti", "Omon Matjon", "Navoiy va Bexzod", "Xosiyat Bobomurodova", "Solix Mutalibov" kabi asarlar portret janrida yaratilgan.

80 – yillarga kelib rassom portret janri borasida yanada sermaxsul ijod etdi. U bir qator shoir va adiblarning obrazlarini muvaffaqiyatli tasvirlab berishga erisha oladi. Atoqli olim Hamid Sulaymonov portretini yaratish bilan rassom otaxon ustozga bo'lgan samimiy muhabbat va hurmatini ifodalaydi. Rassomning bir qator devoriy suratlaridagi ijodi e'tiborga molikdir. Bu o'rinda "Alpomish va Barchinoy", "Bexzod" kabi asarlari diqqatga sazovordir.

O'zbek san'ati ravnaq topayotgan yillarda boshqa rassomlar qatori ajoyib o'zbek qizi Shamsiro'y Hasanova ham ijod qilgan. Shamsiro'y Hasanova 1917 yilda ishchi oilasida tavallud topdi. 1932 yilda o'rta maktabni tamomlab, Toshkent badiiy bilim yurtiga o'qishga kirdi. Uning ustози A.N.Volkov edi. Bilim yurtini bitirgach, Samarqandda P.P.Benkov raxbarlik qilgan badiiy studiyada taxsilni davom ettirdi. Uning ijodi o'zi sevgan va chuqur o'rgangan sharq miniatyurachiligi va monumental tasviriy san'ati bilan chambarchas bog'liqdir.

ILOVALAR




V.Serov. quyosh nuri tushgan qiz. .



R.Ahmedov. Ona o'ylari.



Oltin tojdagi yigit portreti




M.Nabiyev. Abu Bakr ar-Roziy.



.Serov. Shaftoli bilan qiz. Fragmentlar.



A.Abdullayev. Yozuvchi K.Yashin portreti.







FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. I.A.Karimov. Tarixiyxotirasizkelajakyo'q.Toshkent.1998y.
2. I.A.Karimov.Vatan sajdagoxkabimuqaddasdir.Toshkent.O'zbekiston.
1998y.281 bet.
3. I.A.Karimov.O'zbekiston XXI
asrbo'sag'asida.Xavfsizlikkataxdidbarqarorlikshartlarivataraqqiyotkafolatlari.
Toshkent.O'zbekiston. 1997 yil. 137 bet.
4. RaximXasanov. Tasviriy san'atasoslari. Toshkent. G'afurG'ulom. 2009
yil.
5. OlimSamadov. Tasviriy san'atdarsalaridaodamboshinitasvirlash.
Toshkent.Fan.2005yil.
6. S.Abdurasulov, B.Boymetov, N.Tolipov. Tasviriy san'at.Toshkent.
Cho'lpon. 2006 yil.
7. N.Abdullaev.San'attarixi. Toshkent. San'at.2001yil.
8. N.Abdullaev.San'attarixi.2/1.Toshkent. San'at.2001yil.
9. N.Norqulov. Miniatyuratarixidanlavxalar. Toshkent. 1970 y.
10. N.Oydinov. O'zbekistontasviriy san'atidanlavxalar.
Toshkent.O'qituvchi.1997 yil.

11. S.Abdurasulov, N.Tolipov, N.Oripova. Rangtasvir. Toshkent. O'zbekiston.2006 yil.
12. Boymetov.B. Portretqalamtasviri. Toshkent.2001y.
13. Oripov.B. Tasviriy san'atvaunio'qitishmetodikasi. Toshkent.Ilmziyo.2005yil.
14. Xasanov.R. Maktabdatasviriy san'ato'qitishmetodikasi. Toshkent.Fan. 2004 yil.
15. "San'at"jurnali. 2000 yil. 2 son..
16. "Sino" jurnal. 2001 yil. 5 son.
17. "San'at"jurnali. 2008 yil. 2 son.
18. "San'at"jurnali. 2008 yil. 1 son.
19. "San'at"jurnali. 2009 yil. 3 son.
20. "San'at"jurnali. 2011 yil. 1 son.
21. "Moziydan sado". 2006 yil. 4 son.

Mundarija

Mavzu:

“ Tasviriy san’atda portret janri”

Kirish.....2-4 betlar

I BOB.

1.1. Portret - rangtasvirning bir janri sifatida.....5-11betlar

1.2. Kamoliddin Behzod ijodida portret.....12-20 betlar

1.3. Malik Nabiev ijodi.....21-23 betlar

II BOB.

2.1. Ijodiy portret yaratish qoida hamda usullari.....24-33 betlar

2.2. Odam boshini chizish.....34-40 betlar

2.3. Inson qiyofasini akademik qalamtasvir usulda tasvirlashda metodik izchillikka rioya qilish.....41-51 betlar

Xulosa.....52-62 betlar

Ilovalar.....63-72 betlar

